

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ ___ ” _____ 2013 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“AQLI ZAIF BOLALAR RUHIY JARAYONINING O'ZIGA
XOSLIGI”**

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Egamqulova Charos Bobirovna
401 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.n. G`.Arifxodjaev

Ishni himoyaga tavsiya etaman t.f.n. G`.Arifxodjaev _____

(imzo)

BMI Defektologiya kafedrası yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № ____, __.05.2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri t.f.n: G`.Arifxodjaev _____

(imzo)

JIZZAX - 2013

MUNDARIJA

Kirish	3-4
I.Bob.Aqli zaif bolalarda ruhiy rivojlanish jarayoni buzilishlarining sabablari.	
1.1. Aqli zaif bolalarda ruhiy jarayon buzilishining biologik va jismoniy sabablari.....	5-11
1.2. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonining muammosi va xususiyatlari.....	12-17
1.3. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayoniga ko'ra normal tengdoshlaridan farqlash.....	18-21
II.Bob. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayoning o'quv faoliyatiga ta'siri va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar.	
2.1. Aqli zaif bolalar bilish faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari.....	22-28
2.2. Aqli zaif bolalarni ta'limga o'rgatishda ruhiy jarayonlarning ta'siri.....	29-35
2.3. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonidagi muammolarni bartaraf etishning korreksion, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni kompleks tashkillashtirish.....	36-45
Xulosa	46-48
Adabiyotlar ro'yxati	49-50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz tomonidan 2005- yilni “Homiylar va shifokorlar yili” deb belgilab qo’yilganligi jismoniy va ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo’lgan bolalarga maxsus korreksion ta’lim-tarbiya berish masalalariga ham jiddiy yondoshish va bu borada qo’shimcha chora tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Malumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog’liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo’lib, o’z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi.

Yordamchi maktab o’quvchilari shaxsini, ma’naviyatini, dunyoqarashini, davr talabi darajasida tarbiyalash va korreksion rivojlantirish, eng avvalo oiladan boshlanadi maktabda esa davom ettiriladi. Shunga ko’ra yosh avlodni o’zini o’rab turgan atrof muhitga, tabiatga nisbatan to’g’ri munosabatda bo’lishini tarbiyalab borish, ongiga singdirish jarayonida mehnatga, kasb hunarga tayyorlash maxsus maktablar va biz pedagoglarning oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni ruhiy jarayonlarni o’rganib ularga to’g’ri ta’lim- tarbiya orqali o’z tengdoshlari qatoriga qo’shish.

Tadqiqotning obekti. Yordamchi maktab internati .

Tadqiqotning predmeti. Aqli zaif bolalar ruhiyatining namoyon bo’lishi, rivojlanishi va o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish.

Tadqiqotning vazifalari. Aqli zaif bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan defektologlarni, oligofrenopedagoglarni qurollantirishdan iborat.

Tadqiqotning metodlari. Kuzatish, tajriba, suhbat, anketa, test, o'quvchilar faoliyat natijarini tahlil qilish va ijodiy faoliyat mahsulotlarini psixologik tahlil qilish kiradi.

Tadqiqotning tuzulishi. Malakaviy ish tarkibi – kirish qismi, II-bob va 6 bo'limdan iborat.

I.BOB. AQLI ZAIF BOLALARDA RUHIY RIVOJLANISH JARAYONI BUZULISHINING SABABLARI

1.1. Aqli zaif bolalarda ruhiy jarayon buzulishining biologik va ijtimoiy sabablari

Respublikamizda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning barcha sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasidan tayyor bo'lib yetishishlari masalasiga jiddiy etibor qaratilmoqda. Jumladan, ushbu kunda tashkil etilgan 86tadan ortiq maxsus maktab, maktabning asosiy faoliyati u yoki bu jihatida muommolari bo'lgan bolalardagi psixik hamda jismoniy muammolarni korreksion-kompensator yo'llari yordamida bartaraf etish orqali ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Aqli zaif bolalar da ruhiy rivojlanish jarayoni buzulishining sabablari ijtimoiy va biologik bo'lishi mumkin undan tashqari ruhiy kamchilikka ega bo'lgan bolalar ham shu turga yaqin hisoblanadi, masalan ruhiy kamchilikka ega bo'lgan bolalar turli ko'rinishlarga, hillarga ega bo'lishi, maxsus psixologiya, potopsixologiya, oligofrenlar psixologiyasi fanlarida tashkil etiladi. Aqliy kamchilik deganda biz shuni tushunishimiz kerakki, psixologik jarayonlardan idrokni buzulishi tafakkurdagi analiz va sintezning nomutanosibligini, hotiradagi unutish (amneziya) jarayonini dominant bo'lib qolishi, diqqat xususiyatlaridagi domonantlikni ortib ketishi natijasida yuzaga keladigan, ma'lum bir kamchilikni namayon qiladigan bolalarni tushunamiz. Lekin bular ruhiy bemor (individ) emaslar, aksincha ma'lum bir kamchilikka ega bo'lgan bolalar bilan ishlashni tashkil etishda; a) tibiyot hodimlari xulosasiga suyanish lozim. b) ota-onalari xulosasiga suyanish lozim.

Ruhiy kamchilikka ega bo'lgan bolalarni qaysi jarayonida kamchilik borligini aniqlab tashxis qo'yib ana shu jarayonlarning rivojlanishi uchun alohida etibor beriladi. Aqli zaif bolalarning ruhiy rivojlanish jarayonini esa psixologiya emas, oligofrenopedagogika o'rganadi.

Oligofrenopedagogika-aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish ijtimoiy hayotga jalb etish masalalarini o'rganuvchi defektologiyaning bir tarmog'i hisoblanadi. Oligofreniya irsiy, tug'ma va go'daklikda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Bunda aqliy norasolikdan tashqari ko'picha bo'y normal o'smaydi, gavda tuzulishi nisbatlari buzilgan, kalla tuzulishi noto'g'ri bo'ladi, bola o'z vaqtida balog'atga yetmaydi yoki vaqtdan ilgari balog'atga yetadi. Nutqi, harakatlari buziladi, sezgi organlari funksiyasi o'zgaradi, ba'zan tutqanoq tutadi. Ba'zi bemorlar betoqat, serjahl boshqalari bo'shashgan kamharakat bo'ladi.

Aqli zaif bolalar ruhiyatini o'rganish nuqsonli bolalar ichida nisbatan mukammal o'rganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan bir muncha keng atroflicha o'rganilmagan. Aqli zaif bolalarning o'rganishning mumkinligi va zarurligi, ularni o'qitish, tibbiyot, hususan psixatriyaning rivoji bilan uzviy bog'liq. 18-asrning oxirlari 19-asr boshlarida aqli zaif bolalarni davolash, tarbiyalash, o'qitishga oid ma'lu m ijodiy qarashlar yuzaga keldi va shakllana boshladi. Shuni eslatimb o'tish joizki aqli zaiflar ta'lim tarbiyasi masalalari dastlab, asosan aqliy nuqsoni o'g'ir darajadagi bolalar ustida boshlangan. Nisbatan yengil darajadagi aqli zaif bolalarni o'rganish, davolash, tarbiyalash bir muncha kengroq, 19-asrning ikkinchi yarmidan yuzaga keldi. 1858-yilda chet el rus pedagogik adabiyotlarida N.A.Dobrolyubov tomonidan aqli zaif bolaning o'ziga hos xususiyatlari ochib berildi. Uning ko'rsatishicha "faollikning pastligi", "sekin idrok qilish", "quruq yodlashning ustunligi", "bir hildagi harakatlar", "yangi sharoitlarga yomon moslashish", "bilimlarni to'g'ri ishlata olmaslik"-aqli zaif bolalarga xos xususiyatlar ekan. 19-asr ikkinchi yarmi 20-asr boshlarida Rossiyada aqli zaif bolalarni o'rganuvchi , davolovchi, tarbiyalovchi , bilim beruvchi qator davolash, tarbilash muassasalari ochila boshlandi. 1910-yilda Moskvada aka-singil Postovishiylar boshlang'ich bilim yurti qoshida aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinf ochdilar. Hamda bolalarni o'rganish uchun eksperemental psixologik kabinet tashkil qildilar. 1911-yilda shifokor, psixiatr, professor G.I.Rossolimo Moskvada bolalar psixologiyasi va nevrpotologiyasi institutini ochdi.

Bu yerda aqli zaif bolalar ruhiyatining o'ziga hos tomonlari o'rganila boshlandi. 1920-yillardan boshlab maxsus psixologiya xususan aqli zaif bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida maorif tizimiga kiritildi. Shu davrdan boshlab bu muammo davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlar tizimiga kiritilib, alohida e'tibor

berila boshlandi. 1925-yilda Moskvada eksperimental defektologiya institute tashkil etildi. L.S.Vigotskiy rahbarligida muntazam, izchil aqli zaif bolalarni o'rganish boshlab yuborildi. Yetuk psixolog Vigotskiy maxsus psixologiya sohasida juda katta nazariy meros qoldirdi. Hamda haqli ravishda oligofrenopsixologiyaning asoschisi hisoblanadi. 1935-yildan aqli zaif bolalar ruhiyatini o'rganuvchi laboratoriyani L.V.Jankov boshqara boshladi. 1943-yilda mavjud bo'lgan eksperimental defektologiya institute Defektologiya ilmiy tekshirish institutiga aylantirildi. Institutga T.A.Vlasova 1985-yilga qadar rahbarlik qildi. Oligofrenopsixologiya boshqa fanlar singari turli fanlar bilan uzviy bog'liq. Oligofrenopedagogika, psixiatriya, fizalogiya, logopediya, umumiy va bolalar psixologiyasi va boshqa fanlar shular jumlasiga kiradi.

Aqli zaif bolalar ruhiyatining o'ziga hosligi hozirgi zamon ilg'or fan yutuqlarining natijalari bilan bog'lab o'rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini hisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o'taydi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruhiy holatlar, qay darajada o'sishini, rivojlanishini bilib ish yuritadi. Pedagogik psixologiya ham aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun yatarli ma'lumotlar beradi. Ijtimoiy va biologik omillar birligi nazariyasini ochib berar ekan, aqli zaif bolalar psixologiyasi, oligofreniya klinikasi, nevrpatologiya, fizalogiya fanlarining yutuqlariga asoslanadi.

Oligofreniya klinikasi aqli zaiflikning etiologiyasini ochib berishga yordam beradi. Nevropatologiya aqli zaif bolalar markaziy asab tizimining anatomik va organik buzulishlari haqida bilim beradi. Fizalogiya esa, markaziy asab tizimining funksional buzulishlari haqida bilim beradi. Bularning barchasi aqli zaif bola ruhiyatining nuqsoni haqidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi markaziy asab tizimining eguluvchanligi haqida I. P.Pavlovning fizalogik ta'limotiga asoslanadi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi psixiatriya yutuqlaridan ham foydalanadi. G.E.Suxopeva, M.S.Pavzner aqli zaif bolalarni o'rganish ishlariga juda katta hissa qo'shdilar. Ular tomonidan aqli zaif bolalar etiologiyasi, patogenezi, davolash ishlari, kasallik natijalari,

kasallikning ikkilamchi asoratlari atroflicha o'rganildi. o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Ularning taraqqiyot dinamikasi o'rganildi. Aqli zaiflarga xos, o'xshash tomonlar o'rganilib bayon etildi. Psixiatr pedagoglar tomonidan hamkorlikda tekshirishlar olib borildi, natijada aqli zaiflikni pedagogic, psixologik, diagnostic tashxis qilish mezonlari yaratildi ayniqsa aqli zaif bolalar psixologiyasi, oligofrenopedagogika bilan bog'liq. Aqli zaiflik sabablari, darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, aqliy taraqqiyot davom etadi. Hatto kasallik og'irlashib borganda ham bosh miya zararlanishi darajasiga ko'ra taraqqiyot davom etadi.

Fanning uslublari haqida ham biroz to'xtalib o'tsak. Uslublar deganda nimani tushunsmiz? Aslida uslublarni turli ma'nolarda tushuntirish mumkin. Turli fanlarda mujassamlashgan nazariy, amaliy bilimlarning o'quvchilar ongiga yetkazishning u yoki bu yo'lini ham uslublar deb tushunish mumkin. Bu esa har bir fanning shu fanga oid bilimlarni tig'ish to'plash yo'llari tushiniladi.

Aqli zaif bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy jarayonlarining o'ziga xosligi, bilim olish imkoniyatlari haqidagi oligofrenopedagoglar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar quydagi uslublar orqali yig'iladi. Bularga kuzatish, tajriba, suxbat, anketa, test, o'quvchilar faoliyat natijalarini tahlil qilish va boshqalar kiradi.

Aqli zaif bolalarda ruhiy jarayonning buzulishi – tug'ma, irsiy, ega bo'lingan kasalliklar yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan jarohatlar asoratlari asosida kelib chiqishi mumkin. Tug'ma muammolarning yuzaga kelish sabablari turli tuman bo'lib, ko'pgina hollarda nasliy (genetik) omillar muhim o'rin egallaydi.

Tug'ma muammolar rivojlanayotgan homilaga kimyoviy, mexanik, infeksiyon ta'sirlar ko'rsatish natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Tug'ulgandan so'ng paydo bo'ladigan muammolar ilk yosh davrlarda yuqumli kasalliklar bilan og'rish (meningit, polimielit, qizamiq, skarlatina) jarohatlanish intaksikatsiya natijasida ro'y beradi.

Biologik sabablari- bu jarayonning o'zi ham 2xil bo'ladi .

Birinchi dan ona homiladorlik vaqtida

- taksikoz hodisalari yuz berishi

- ovqatlanishi buzulishi
- chala tug'ulish
- virusli gripp
- bezgak
- gepatit
- ichterlama kasalliklariga uchrashi
- rezus faktorning to'g'ri kelmasligi
- asfiksiya munosabati
- dispepsiya
- distrofiya
- dizenteriya
- qalqonsimon bezlarning kasalligi
- yurak qon tomir kasalliklariga uchragan onalar ham ko'pincha shu turdagi bolalarni tug'ulishini ko'rsatuvchi tadqiqotlar ham mavjud

Ota- onalarning jinsiy hujayralariga zarar yetkazadigan yoki homila yoxud go'dak boladagi markaziy nerv sistemasining rivojlanishini buzib qo'yadigan tashqi ta'sirlar :

- zaxm
- toksiplazmoz
- avitaminoz
- qandli diabet va bazi hollarda patalogik irsiyat ruhiy jarayonlarning va aqliy zaiflikning biologik sabablari bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy sabablari. Ijtimoiy hayotda uchrab turadigan noxush xodisalarning asl sabablaridan biri aksariyat oilalardagi a'zolar orasidagi iliqlik va mehr-oqibat poydevoriga putur yetayotganidan kelib chiqayotganligi sir emas . oxir oqibat natijasi farzandlarning ota-ona mehrga to'ymay o'sishi, yetarli darajada oilaviy hayot qonun-qoidalaridan bebahra qolishi, ayni shu manaviy yetshmovchilik mavjud bo'lgan maxsus muassasalarda tahsil olib o'sib ulg'ayib oila qurganlarning farzandlari yana shu massasalarga tushib qolishi ayanchli holdir.

Jamiyatimizda mavjud “notabiiy oilaviy sharoit” yaratilgan yordamchi maktablarda ta’lim- tarbiya topayotgan bolalar turli xil sabablarga ko’ra ayni shu dargohda ulg’ayib, jamiyatni o’rab turgan kishilarning u yoki bu darajadagi munosabati qurshovida o’sib ulg’ayib kelmoqdalar. Keng manodagi deprivatsion muhit ozmi-ko’pmi ularning ijtimoiylashib borishiga turli darajada ta’sir qilmoqda. Kattalar tengdoshlari, o’zlaridan kichiklar bilan muloqotning turli hillarida munosabatga kirishib, shaxslararo munosabatlarga kiritish xususiyatlari, jamiyatda mavjud talab va qoidalarga rioya qilish, hayotga moslashish, o’z o’rnini topish sirlari bilan tanishadilar. Yordamchi maktablarda tahsil olayotgan ana shunday bolalar haqida qayg’uradigan o’qituvchilar, tarbiyachilar va muassasa rahbariyati tarbiyalanuvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydilar.

Oilaviy muhit-bolaning har tomonlama taraqqiyotida eng muhimi hisoblanadi. Oilaviy muhit orqali u hayotni, insonlarni, muloqot turlarini tarbiyani yoshlik chog’idanoq kattalardan, ya’ni yaqin kishilardan o’rganadi. Bola yoshligidanoq nafaqat yurishni, balki gapirishni, buyumlardan qanday foydalanishni, o’yinlar o’ynashni, boshqalar bilan muomila qilishni, o’z-o’ziga va boshqalarga nisbatan munosabatni oiladan o’rganadi. Oilada tarbiyalanoyotgan bolalar hayotda tabiiy holatda erkin o’sadi, chunki doimo oila davrasida ota-ona, aka-ukalari, har xil yoshdagi turli xulqdagi insonlar bilan munosabatda bo’ladi. Bolaning ko’z oldida ularning bir-biriga bo’lgan, mehnatga bo’lgan munosabati, chin insoniy munosabatlar shakllanib boradi.

Oiladagi salbiy munosabatlar esa bola ruhiyatiga juda ayanchli ahvoldagi ta’sirini ko’rsatadi. Otaning onaga bo’lgan yomon munosabati, kunda ichib kelib janjal qilishi yoki bo’lmasa onaning otaga bo’lgan turli xarxashayu, arzimagan bir holatdan kelib chiqadigan janjallar. Ota-onaning ajashib ketib alohida yashashi, oilada yetarli sharoit bo’lmasligi bolani siqilishlarga olib keladi, bu siqilishlar esa ruhiy jarayonning buzulishiga, ruhiy jarayonning buzulishi esa Aqli zaiflikka, tengdoshlaridan orqada qolishiga olib keladi. Oiladagi ota-onaning bunday munosabati, bir-birini tushunmasligi ma’naviy qashshoqlik hisoblansa, shu ma’naviy qashshoqlik orqasidan butun avlodi buzulishi mumkin, masalan; ota-ona

mehriga zor bo'lib, o'sgan bola mehribon bo'lmaydi chunki unga mehr berilmagan. Endi kim kafolat beraoladi bu bola ham o'z farzandlariga mehr beraoladi deb, yo'q u o'zida yo'q narsani qayerdan beradi. Shu tariqa uni mavlodi ko'payadi va shu tarzda davom etadi.

“ota-ona va farzand munosabatlari” mavzusida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar ham yuqoridagi natijalarni tasdiqlaydi. Yordamchi maktab o'quvchilariga taqdim etilgan anketa savollariga olingan javoblar umumlashtirilganda o'z davrida oila a'zolari tomonidan kamsitilgan, ruhiy va jismoniy jabr ko'rgan bo'lsalarda, xotiralarining tub-tubida ota-onalariga nisbatan ijobiy munosabat yotganligi aniqlangan. Bu bilan mazkur ishtirokchilarning ota-ona mehriga hali ham mushtoqliklari, o'z yaqinlari bilan birga bo'lish istagi mavjudligi oydinlashadi. Shunday ekan bu bolalarni manashu ahvolga tushushlariga ijtimoiy tomondan olib qaraydigan bo'lsak faqatgina ota-onalari va oilaviy muhiti aybdor. Bunday holatlarni oldini olish uchun yordamchi maktab o'qituvchilari va oila a'zolari birgalikda bola bilan ishlashlari alohida e'tibor qaratishlari lozim. Yuqorida aytib o'tganimizdek bola boshlang'ich tarbiyani oilada oladi va maktabda davom ettiradi.

1.2. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonining muammosi va xususiyatlari

“Inson yuqori darajadagi o'z-o'zini boshqaruvchi, yordam beruvchi, tiklovchi, to'g'rilovchi hatto takomillashtirimb boruvchi bir murakkab sistemadir”,-degan edi I.P.Pavlov. Ha, bu xulosalarda juda katta haqiqat borligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Aqli zaiflik tushunchasini to'g'ri tushunishning amaliy va nazariy ahamiyati juda katta. Nazariy ahamiyati-bolalardagi nuqsonli ruhiy taraqqiyotning mohiyatini chuqurroq bilish uchun zarur. Fanning noaniqligi, konkret emasligi ko'p hollarda turli xatoliklarga olib keladi. Shu sababli, aqli zaiflikni to'liq, to'g'ri tushunish

kerak. Bu narsa o'tkazilayotgan ilmiy-tajriba ishlarining ham noto'g'ri yo'lga tushib qolishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. "Aqli zaif" likka to'g'ri ta'rif, tushuncha berish, uning sabablarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Buning amaliy ahamiyati yanada kattadir. Aqli zaif bolalar uchun maxsus o'quv tarbiya muassasalari mavjud. Barcha aqli zaif bolalar yordamchi maktablarda ta'lim olishlari kerak.

Aqli zaif bolalarni to'g'ri aniqlash, ularning butun hayotini belgilab berishini inobatga olib, juda ehtiyotkorlik bilan ishlash kerak. Aqli zaiflikni to'g'ri aniqlash atroflicha amalga oshiriladi. Agr bola aqli zaif bo'lmay, ma'lum hususiyatlar bilan ularga o'xshasa ham ularni aqli zaif deya olmaymiz. Bu yerda bolaning turli analizatorlarining nuqsonlari asosida ham bilim saviyalari pasaygan bo'lishi mumkin. Ayniqsa, aqliy normal bolani yanglishib aqli zaif deb hulosalash asosida ota-onalarga, bolaga, atrofdagi qarindoshlariga juda katta ma'naviy jarohat yetkazishimiz mumkin. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, aqli zaiflarni o'qitish-tarbiyalash davlatga bir muncha qimmatga tushadi.

Normal bolaning aqli zaif yoki aksincha bo'lishi ham qator salbiy oqibatlariga olib keladi. Aqli zaiflik sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin. Bosh miyaning turli kasalliklar bilan kasallanishi, turli jarohatlar bilan birga miyaning yaxshi rivojlanmasligi asosida ham aqli zaiflik kelib chiqishi mumkin.

Aqli zaif bo'lish uchun 2ta omil birga kelishi kerak. Bulardan biri-markaziy asab tizimining organik buzulishi, hamda shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg'un pasayishi yuz bergan bo'lsagina aqli zaif deb e'tirof etish mumkin. Hayotda aqli zaiflarga o'xshagan bolalarni uchratish mumkin. Ammo, ularda bilish darajasi past bo'lsada, bosh miyada organik jarohatning yo'qligi bolaga aqli zaif deyishimizga imkon bermaydi.

Eshitish qobiliyati turli sabablarga ko'ra nisbatan pasaygan, nutq kamchiligi borlar ko'rish darajalari zaiflar, kasalliklari surunkali davom etuvchi bolalarning bilim egallash xususiyatlari, darajalari o'zlarining normal hisoblangan tengdoshlaridan nisbatan orqada qoladilar.

Ammo, bunday bolalarni aqli zaif deya olmaymiz. Chunki ularning bilish faoliyatlari turg'un pasaymagan. Ular bilan tegishli sharoitlarda ta'lim tarbiya

ishlari olib borilsa, ulardagi bilish kamchiliklari tugatilib o'zlarining normal tengdoshlarinikiga yetib olishga imkon yaratiladi.

Ba'zan ota-onalarining ma'lumotlari past bo'lgan oilalardagi bolalarning bilim darajalari, ota-onalarning ma'lumotlari yuqori darajada bo'lgan oilalarning bolalaridan bir muncha farq qiladilar. Bunday hollarda ba'zan ko'pchilikda noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'lishi mumkin. Tarbiyasi yaxshi tashkil qilinmagan bolalar ham turli xato xulosalarga olib kelishi mumkin. Ammo, bunday bolalarda ham asosiy belgilar bosh miyaning organik buzulishi va bilish jarayonlarining turg'un pasayishi uchramaydi. Shu sababli bunday bolalarni ham aqli zaif deya olmaymiz.

Oligofrenopsixologiyada aqli zaiflikning 3darajasi haqida bilimlar beriladi. Aqli zaiflikning yengil darajasi-debillik deb yuritiladi. O'rtacha darajadagi aqli zaiflikni esa-embitsillik deb nomlanadi. Aqli zaiflikning og'ir darajasi-ediottik deb yuritiladi.

Qisqacha bularning har biri haqida toxtalib o'tamiz. Debil bolalar aqli zaiflikning eng yengil darajasi bo'lib, yordamchi maktabning 9yillik dastur materiallarini muvoffaqiyatli egallaydilar. Bu bolalar yordamchi maktabni bitirish bilan birga ma'lum kasb mutaxassislikni ham egallaydilar.

Imbitsil bolalar ommaviy tarzda ta'limga jalb etil maydi. Bu toifa bolalarning ayrimlari yordamchi maktab qoshlarida tashkil etilgan imbitsil bolalar sinflarida tajriba tarzida o'qitiladi. Bu bolalarning bilim olish darajalari bir muncha cheklanganligi sababli, ularning hammasi o'qiy olmaydilar. Bu darajadagi aqli zaif bolalar mustaqil hayot kechiraolmaydilar.

Aqli zaiflikning og'ir darajasi idiotlik deb yuritilib, ular umumta'limga jalb etilmaydi. Bu toifa aqli zaif bolalar ijtimoiy ta'minot muassasalarida saqlanadilar. Shu muassasalarida bunday bolalar tarbiyalanadilar, davolanadilar. Bu bolalarda nutq deyarli rivojlanmagan, o'z-o'zlariga hizmat qilish malakalari shakllanmagan bo'ladi. Bu bolalarning harakat tizimlari ham buzulganligi oqibatida ularning yugurishlari ham o'ziga hos ko'rinish kasb etadi. Bu bolalardagi barcha salbiy hislatlarga qaramasdan ularda ham ma'lum darajadagi elementar ko'nikma, malaka, odatlar tarbiyalash mumkin.

1950-yillardan keyin I.P.Pavlov ta'limotni chuqurroq, ijodiy o'rganish asosida aqli zaiflikni tor tushunishga chek qo'yildi. Bu ta'limot asosida "himoyalovchi-saqlovchi" jarayonning mohiyati ochib berildi. Ruhiyatning reflector nazariyasi markaziy asab tizimining kasallanishi natijasida ish qilish qobiliyatining buzulishini oydinlashtirib berdi. Aqli zaif bolalar oily asab faoliyatining hususiyatlari borasida A.R.Luriya , M.S.Pevzner tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar juda katta nazariy ahamiyatga ega bo'ladi. 1962-yildagi xalqaro kengash oily asab faoliyati fiziologiyasining masalalarini to'g'ri tahlil qilishga yordam berdi. Mashxur psixolog oligofrenopsixologiyaning asoschisi L.S.Vigotiskiy ta'limoti juda katta nazariy, amaliy ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda Vigotiskiy ta'limoti yanad dolzarblashib bormoqada. Turli etnologik omillar asosida kelib chiqadigan aqli zaiflarni deferensiallashgan holda ta'limga jalb etish ishlari ishlab chiqilmoqda.

Qator ilmiy-tajriba kuzatishlarning ko'rsatishicha, aqli zaif va normal bolalar taraqqiyoti yagona, umumiy rivojlanish qonuniyatlari asosida amalga oshar ekan.

Normal rivojlanish barcha bosqichlarda dinamik tarzda amalgam oshsa, aqli zaif bolalar rivojida bir muncha chetga chiqish ko'zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar rivojlanishi bosh miya nuqsoni asosida kechar ekan demak, aqli zaif bolalar markaziy asab tizimig turli tomonlari, ruhiy jarayonlar dinamik tarzda rivojlanadi. Bu borada L.S.Vigotiskiyning "birlamchi" va "ikkilamchi" nuqsonlar nazariyasi "erishilgan" va "yaqin vaqtlarda erishish mumkin bo'lgan daraja" haqidagi ilmiy ishlari nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Birlamchi nuqsonlar deganda bosh miyaning turli salbiy ta'surotlar oqibatida organik buzulishini tushunamiz.

Bunday salbiy ta'surotlarga turli jarohatlar, urulishlar, kasalliklar kiradi. Bularning barchasi bosh miyani u yoki bu darajada zararlaydi. Yuqoridagi birlamchi nuqsonlar ta'siri ostida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi. Bunday nuqsonlar ikkilamchi hosillalar deb ham yuritiladi. Ikkilamchi nuqsonlarning mazmuni asosan birlamchi nuqsonlarning chuqurligiga, darajasiga, yuz bergan

vaqtiga ko'p jihatdan bog'liq. Ikkilamchi nuqsonlar bevosita aqli zaif bola shaxsidagi turli o'zgarishlardir.

“Erishilgan” (aktual) taraqqiyot zonasi deganda tekshirilayotgan vaqtdagi bolaning taraqqiyot darajasi tushuniladi. “Yaqin vaqtlarda rivojlanishi mumkin bo'lgan daraja” esa, ma'lum ta'lim-tarbiya, taraqqiyot bosqichlaridan keyingi rivojlanish darajasini tushunamiz. Vigotiskiyning takidlashicha, ta'lim-tarbiya taraqqiyotdan oldinda boradi. Shu sababli ta'lim-tarbiyani bolaning “erishilgan” taraqqiyot darajasiga qarab emas, balki bolaning “yaqin vaqtlarda rivojlanishi mumkin bo'lgan daraja” ga asoslanib tashkil qilish lozim. Ma'lumki, aqli zaif bola tafakkurining rivojlanmasligi asosida bosh miya po'stloq osti qismlar faoliyatining buzulishi yotadi. Pedagoglar fikricha, aqli zaif bola taraqqiyoti davomida nazariy bilimlarni egallab boradi. Ammo bolaning aqliy koefsenti o'zgarmaydi degan fikrni yoqlab chiqqanlar. Ruhiyatning rivoji og'ir darajadagi aqli zaiflarda ham davom etadi. Hatto aqliy nuqson og'irlashib boruvchi holatda ham ruhiy rivojlanish davom etadi. Bola ruhiyati har qanday o'g'ir nuqsonda ham rivojlanib borish xususiyatiga ega ekan.

J.I.Shifning etirof etishicha “aqli zaif bola ruhiyati, normal bola ruhiyati kabi rivojlanish davrlarini boshidan kechiradi”. Ruhiyatning rivojlanish qonuniyatlariga ta'lim-tarbiya ham ma'lum darajada ta'sir etadi.

Oligofreniya muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilsak 2ta o'ziga hos oqimni ko'rish mumkin.

Birinchi oqim tarafdorlarining takidlashicha, aqli zaif bola u yoki bu darajada sodda, elementar bilimlarni o'zlashtiradi. Ammo, ular umumlashtirish, abstraksiyalash jarayonlarini normal boladek bajara olmaydilar. Ruhiyatning qaysi sohasini olmag taraqqiyotda yuqori darajaga yeta olmaydilar. Bularning asosida yetakchi kamchilik bo'lgan umumlashtirish jarayonlarining zaifligi yotadi.

Ikkinchi oqim L.S.Vigotiskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ruhiy taraqqiyotni yagona jarayon deb hisoblab, har bir rivojlanish bosqichi undan oldingi rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqligini uqtiradi. Vigotiskiy birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni ajrata bilish zarurligini ko'rsatadi. “Dastlabki va tez uchraydigan nuqson psixologik funksiyalarning rivojlanmasligidir. Buning asosida

xotira, tafakkur, xarakter buzulishlari yotadi. Nuqsonli bola ruhiyati rivojlanishining asosiy belgisi biologik va madaniy rivojlanish orasidagi bog'liqlikning buzulishidir",-deb ta'kidlaydi Vigotiskiy.

Boladagi biologik nuqson o'z navbatida madaniy bilimlarni egallashga to'sqinlik qiladi. Vigotiskiy nazariyasiga ko'ra, oily ruhiy funksiyalar-xotira, tafakkur, xarakter madaniy rivojlanish maxsulidir. Aqli zaif bola rivojidagi biologik va madaniy sohalarining bir-biridan uzoqlashishi natijasida ulardagi intilish va talablar diagormonik, uyg'un bo'lmagan tarzda shakllanadi. S.S.Karsakov 1905-yilda chop etilgan "mikrosefalar psixologiyasi" asarida "chuqur darajadagi aqli zaif bolalarda atrofni bilishga bo'lgan intilish shakllanmagan",- deb ta'kidlagan edi. Bu fikrlarni G.E.Suhareva o'z ishlarida rivojlantiradi. M.G.Blyumina esa "bog'cha yoshidagi oligofren bolalarga bo'shliq, zaiflik, tashabbussizlik, qiziqishlarning yetishmasligi hosdir",-deb ko'rsatadi.

Shuni qayd etish o'rinliki, aqli zaif bolalarda jinsiy yetilish muddatidan bir muncha oldin potologik tarzda yuz beradi. Albatta, bu holat nuqsonli mazmun kasb etadi. Shuning asosida sekin asta barcha ruhiy rivojlanish buzila boshlaydi. Aqli zaif bolalar nutqi bir muncha sekin rivojlanib boradi. Buning natijasida aqli zaif bolalar atrofdagilar bilan muomilasi kechikib boradi. Ma'lumki jamoa bola ruhiyatining rivojlanishida yetakchi omil vazifasini o'taydi. Ammo aqli zaif bolalar normal tengdoshlaridan ortda qoladilar.

Aqli zaif bola ruhiyatining rivoji ichki va tashqi noxush sharoitlar asosida qiyin amalga oshadi. Asosiy noxush omillarga boladagi qiziqishlarning zaifligi, qiyin o'quvchanligi yomon idrok ko'ratish mumkin. Aqli zaif bolalardagi bunday xislatlar ichki biologik belgilardir. Shular asosidan aqli zaif bolalar jamoasidan chetga chiqib qoladi. Vigotistkinining 1936 yilda chiqqan "Taraqqiyot daignostikasi va qiyin bolalikning pedagogik klinikasi" nomli asarida qo'yidagi fikrlarni bildiradi. "Siptom birlamchi nuqsonlar qancha uzoq tursa, shuncha oson tarbiyaga, davolashga beriladi". Bu qo'llanmada nuqsonlikning erta diagnostika qilishning ahamiyatli ekanligini alohida ko'rsatib o'tadi. Muammo yuzasidan salmoqli M.S.Pevzner va V.I.Lyuboviskiy faoliyatlariga to'g'ri keladi. Ular o'zlarining uzoq

yillik kuzatishlar asosida 1936 yil “Oligofren bolalarning taraqqiyot dinamikasi” deb nomlangan fundamental asrlarida aqli zaif bolalarning aqliy taraqqiyotidagi samarali davrlarni ko’rsatib berganlar. Mualliflarning ta’kidlashlaricha, ta’limning dastlabki yillarida xar taraflama pedagogik ta’siriga qaramay, aqli zaif bolalarning aqliy rivoji sekin amalga oshar ekan. Aqli zaif bola taraqqiyotida 3-4 sinflar asosiy rol o’ynar ekan. Bu yoshlarda ularning aqliy rivojida sezilarli siljishlar yuz berar ekan. O’smirlik davrida egallangan bilimlar mustaxkamlab borar ekan ammo bilim egallash bilan uni amalda qo’llay olish orasida katta farq yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarning ruhiy taraqqiyotida yuqori sinflar yetakchi rol o’ynaydi. Albatta olimlarning xulosalari asosiy aqli zaif bolalarning ko’pchiligiga taa’lluqli. Bizningcha ayrim aqli zaif bolalar yuqoridagi ayrim yosh davrlarga to’la mos kelmasligi mumkin.

1.3. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayoniga ko'ra normal tengdoshlaridan farqlash

Xozirgi vaqtda umumta'lim maktablarda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni uchratishimiz mumkin. Bu bolalar maktab o'quv fanlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Lekin ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan aqli zaif bolalar va tengdoshlarini farqlash lozim. Aqli zaif bolalar bilan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'rtasida qo'yidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin. Aqli zaif bolalarda nutq va harakatning buzilganni butun rivojlanishi davomida ko'rishimiz mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda esa nutq va harakatning buzilishi bog'cha yoshida baratarf etiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar mustaqil rasm chiza olishlari ertaklar eshitishda tashabbus ko'rsatishlari mumkin. Harakat dinamikasi borgan sari yaxshilanib boradi. Masalan, bo'laklarga bo'lingan rasmlarning bir butunligini yig'ishda uncha qiyinchiliklarga uchramaydi vazifalar murakkablashib, rasm bo'laklar soni 4-6 oshsagina pedagog yordam beradi. Bunday bolalar maqol va latifalar, topshiriqlar mazmuni to'g'ri tushunadilar. Lekin normal tegdoshlariga nisbatan tushunishlari aniq saviyada bo'ladi.

O'z holatlarini aksariyat hollarda anglaydilar mustaqil yoki kattalar yordamida to'g'raydilar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar mantiqiy tafakkuri hotirasi idrok etishi o'z tengdoshlariga nisbatan biroz orqada qoladi. Ruhiy rivojlanishning bunday orqada qolishiga sabab, ona xomiladorlik vaqtida turli xil taksikoz xodisalari yuz berishi, ovqatlanishining buzilishi oqibatida bo'lishi mumkin. Onaning turli xil verusli gepotet, ich terlama, gripp kabi kasalliklar bilan kasallanishi yoki bola tug'ilishi jarayonida asfeksiya holati munosabati bilan bo'lishi mumkin. Shu sabablar bolalarning psixik kamol topib borishining orqada qolishiga olib keladi.

Bunday bolalarni yurish turishida infantellik, ya'ni o'zlaridan kichikroq yoshdagi bolalar uchun harakterli bo'lgan xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Ular maktabga kelganlarida o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydilar, maktab topshiriqlarini yaxshi idrok etmaydilar, ta'lim olish uchun yetilmagan bo'ladilar.

Ularda maktabga qiziqishi bo'lmaydi berilgan topshiriqni albatta bajarish kerakligini tushunmaydilar. Ular o'qish va yozishning boshlang'ich malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Ta'lim tarbiya to'g'ri tashkil etilganda bolalardagi psixik intfaltetizm asta- sekinlik bilan baratarf etilishi mumkin. Bunday bolalarni tibbiy pedagog-psixologik jihatdan taqqoslaganda ularda psixik kamol topish sust borayotganligi bu holat oligofreniyaga o'xshash manzarani keltirib chiqarayotgani ko'rishimiz mumkin. Bu xildagi bolalarni o'z vaqtida aniqlash va ularni yuzaki sinfdan sinfga ko'chirmaslik lozim. Aks holda ular o'qv dasturlarni o'z vaqtida o'zlashtira olmay umumta'lim maktablarning ulgurmovchi o'quvchilariga aylanib qoladilar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar bilan ishlash uchun maxsus tadbirlar ishlab chiqish lozim. Bu guruhdagi bolalar uchun umumiy mustahkamlovchi davolash, osoyishta rejim va o'quv prosesida individual yo'l tutish tadbirlari ko'rsatiladi. Ta'lim vaqtida ular uchun ko'proq emosional o'yin elementlaridan foydalanish topishriqlarni asta – sekin oshirib borish bolalar shaxsiyatidagi ijobiy va eng kuchli tomonlardan faollik nutqning yaxshi rivojlanganlik motorikaning puxtaligi va to'la qonli imkoniyatlardan foydalanish lozim. Pedagog bolalar va ularning ota – onalar bilan mustahkam aloqada ishlashi harakat qilishi bolaning ruhiy kamol topishini rag'batlantirish imkonini beradi.

Ba'zi xollarda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'qishni sal kechroq 8 yoshdan boshlashi maqsadga muvofiq. Ammo bu masalani vrach bilan birgalikda ta'lim – tarbiya ishi va tashxiz natijalarni chuqur taxlil qilgandagina hal qilish zarur. Oila va bolalar bog'chasi bola bilan ishlashda uni maktabga tayyorlashda individual yo'l tutishi lozim. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan sanatoriyalarda davolash ishlarini olib borish, sanatoriya sharoitida ta'lim–tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish organizmni mustaxkamlaydigan bir qator davolash tadbirlarni qo'llash bolaning hatti harakatini yaxshilashga olib keladi. Rivojlangan inson shaxsi aqli zaifnikidan ma'lum dunyoqarash bo'yicha farqlanadi. Jamiyatda o'z o'rnini faximlab yetadigan, ma'lum masadga ega bo'lgan maqsadlar yo'lida mustaqil xarakat qila oladigan kishilar shaxs xisoblanadilar.

Bunday imkoniyatlardan chetda qolgan kishilar deb aqli zaif bo'lgan insonlarni tushunamiz. Shu sababli dunyoqarash ong, mustaqillik, shaxsni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalar shaxsi masalasi oligofrenopsixologiyasida nisbatan kam o'rganilgan masalalaridan biridir. Mashhur psixolog S.L.Rubenshteyn o'z g'oyasini tushuntirib shunday deydi. "Har qanday tashqi ta'surotlar kishiga bevosita organizmning ichki sharoiti orqali ta'sir etadi. Bu ichki sharoitning asosiy fiziologik qismini asab tizimining xususiyatlari tashkil etadi". Boshlang'ich sinflardagi aqli zaif bolalarning tushunchalari bir muncha yuzakiligi oqibatida shaxsiy sifatlar ham shunga mos tarzda shakllanib boradi. Aqli zaif bolalar ahloq odob tushunchalarini ota-onalaridan o'qituvchilaridan kitoblardan bilib oladilar ammo bu bilimlarni hayotga tadbiiq etishda qiynaladilar yoki noto'g'ri tadbiiq etadilar. Shular oqibatida aqli zaif bolalar tez-tez anti ijtimoiy ahmoqona saliy ta'sirlarga tushib qoladilar.

Qator mamlakatlarda aqli zaif bolalarning ta'lim tarbiyasi majburiy emas. Ayrim mamlakatlarda moddiy ta'minlangan oila farzandlarigina maxsus ta'limga jalb etilgan. Bunday sharoitda aqliy nuqsonli bolalar mehnat tayyorgarligidan chetda qolib turli ko'ngilsiz oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu joylarda jinoiy elementlar aqli zaif bolalarning nuqsonlardan foydalanib ulardan o'zlarining maqsadlari yo'lida foydalaniladilar. Bunday ko'ngilsiz voqyealar haqida Ch.Dikens va B.Braxit keng ma'lumotlarni beradilar. Aqli zaif bolalarning jinoiy ishlarga kirib qolganligini bir qator matbuot ma'lumotlardan bilsa bo'ladi. Qator mutaxassislar bu kabi ma'lumotlardan noto'g'ri xulosa chiqarmoqdalar. Aqli zaif bolalar ahloqiy nuqsonlilar degan fikrga kelmoqdalar. Bu albatta noto'g'ri tasavvurdir. Hech qanday bosh miya zararli anti ijimoiy, anti ahloqiy moyilliklarning kelib chiqishiga zamin yarata olmaydi og'ir kasalligi oqibatida jamoat tartibini buzgan bola tartibni tushunmaslik yoki o'z harakatlariga raharlik qila olmasligi oqibatida qilgan bo'lishi mumkin.

Kasallik bu kabi millatlarga asos bo'lmasdan, balki bola yashayotgan muhit. Rivojlanayotgan afof-muhit sababchidir. Respublikamizda umumiy ta'lim turli nuqsonlilarga ham tegishlidir.

Shular oqibatida, ko'pchilik aqli zaif bolalar hayotda o'z o'rinlarini topib ketganligini ko'rsatish mumkin. Ruxshunos T.I.Goldovskaya ma'lumotlariga qaraganda tadqiqot o'tkazilgan tumanlardan birida, bundai 20 yil oldin o'kishga yuborilgan akli zaif bolalarning maktabni tugatganlaridan keyingi hayotlari tekshirilgsh. Ma'lum bo'lishicha, yordamchi maktabda o'qigan barcha aqli zaif bolalar ishga joylashgaplar, oidalarini yaxshi taminlaydigan, normal hayot kechirayotgan ekanlar. Yordamchi maktablardagi lisey talim-tarbiyaiing to'g'ri yo'lga qo'yilishi asosida aqli zaif bolalar hayotga to'g'ri moslashganlar. Shaxsining to'g'ri shakllanishi rivojlanib borishi.

L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha, ikkilamchi nuqson sifatida namoyon bo'lishi shart emas. Har doim ham namoyon bo'lmaydi. Buning uchun albatta, tinimsiz, malakani mehnat talab qilinadi. Yordamchi maktablardagi o'qituvchi va tarbiyachilar aqli zaif bola shaxsiga salbiy ta'sir etuvchi sabablarni yaxshi bilishlari darkor. Yordamchi maktab o'quvchilarida ijobiy xulq tarbiyalash eng murakkab masalalardan biridir. Normal bolalarda shaxsiy sifatlarning shakllanish xususiyatlari haqida L.Y.Bojovich batafsil bayon qilgan. Oligofrenopedagogikaning asoschilaridai biri E.Segen ta'kidlab o'tgan aqli zaif bolalardagi "hohishning yo'qligi" shaxs shakllanishida qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. L.V.Zanyuv ham aqli zaif bolalar shaxsidagi qator kamchiliklar haqida batafsil ma'lumotlar boradi. Aqli zaif bolalar shaxsidagi disgarmoniya, nomutanosiblik ular shaxsining rivojlanishidagi yetakchi kamchilikchilaridandir. Shaxs ijtimoiy-tarixiy kategoriyadir. Uning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy vazifasi shaxsning tasnifnomasini belgilaydi. Shaxs-ijtamoiy fanlar: tarix, filosofiya, sosiologiya, etika, estetika, psixologiya, pedagogikaning o'rganish manbaidir. Shaxs-ijtimoiy taraqqiyot vakili, ongli individ bo'lib, jamiyatda mamuriy egallaydi va ma'lumot bajaradi.

Rol - bu shaxsning ijtimoiy funksiyasidir. Masatan, ota-onaiing vazifasi bolalarni tarbiyalashdir. Maktab direktorining roli o'qituvchilarning talim jarayonini tashkil etishidir. Shaxs pozisiyasi uning tutgan o'rni - bu uning aloqalar tizimidir.

II.Bob. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayoning o'quv faoliyatiga ta'siri va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar

2.1. Aqli zaif bolalar bilish faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham aqli zaif o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilimdan lobora lliqroq va aniqroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'ladi. Bu jarayonda hissiy idrok clish liam, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Muayyan fan va hodisalar obyektiv dunyoni bilish jarayonidan o'rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o'zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki qismga — nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqalar. Nazariyada g'oya shakllanadi.

Amaliyot bilimlarning haqiqiyiligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgaitirish, yaratish — bular amaliyot shakllariga kiradi.

Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo'lib xizmal qiladi. Masalan, Marsni kuzatish jarayonini olaylik. Jonli mushohada va abslrakt tafakkur yordamida uchirilgan ilmiy apparatlar orqali olingan materiallarni laboratoriyalarda lekshirish amaliyotga kiradi.

Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivqjlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ham ko'rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omii iimiy bilishning elementi bo'lib, kuzatish, tajriba asosida qo'lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat iicliun ahamiyati ham bo'lmaydi.

Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadi omillar asosida yotgan umumiy bogʻlanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdir.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari bilishda omillarni oʻrganishga katta ahamiyat berganlar. Abu Nasr Forobiy (873—950) bilimning elementi boʻlgan omillarini oʻrganishga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, bilimning asosini mavjud narsa va hodisalarni inkor ettiradigan omillar tashkil etadi. Ibn Sino (980—1037) kasallikni vujudga keltiruvchi obyektiv omillarni oʻrganish asosida kasalliklarni turlarga ajratadi va davolash usullarini ishlab chiqadi. Beruniy (973—1048) tabiat hodisalari sirlarini oʻrganishda tajriba, empirik kuzatish va ular asosida olingan faktlarga asoslanadi.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga taʼsir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator, I.P.Pavlov taʼkidlab oʻtganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, shoʻr, oq, qora, achchiq, chuchuk va hokazolarni koʻrish, eshitish, hid bilish, taʼm — maza bilish, teri — muskul — harakat va organik sezgi organlarining faoliyati orqali bilib olamiz.

Sezgilar — olani haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan, olimning bilishi bilan oʻquvchining bilish faoliyati oʻrtasida umumiylik boʻlsa ham, lekin ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga maʼlum boʻlmagan yangi hqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va ulariqarini ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar. taʼlim jarayonida olani haqidagi elementar bilimlarni bilib olib, oʻzlari uchun ilgari nomaʼlum boʻlgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyotida tekshirib koʻrilgan yangi bir narsani bilib oladilar.

Yordamchi maktabda oʻqituvchi oʻquvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan qonunni bilishga toʻgʻri engillashtirilgan vaqt jihatidan qisqa yoʻldan olib boradi.

Oʻqitish natijalari bilim sifatida, aqli zaif oʻquvchilarning korreksion rivojlanish darajasida oʻz aksini topadi.

Kishilik tarixidan shu narsa ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida shu jamiyatga xos insonni, shaxsni tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Respublikamiz milliy istiqloqlga erishganidan so'ng kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim-tarbiyaning ustuvor vazifasi komil insonni, barkamol shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim To'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi negizida joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimi aynan aqlan zukko, ma'naviy jihatdan yetuk, raqobatbardosh, jahon standartlariga mos kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Tadqiqot ishimiz uzluksiz ta'lim tizimida aqliy qobiliyatni o'rganishdan iborat bo'lganligi tufayli, turli yosh bosqichlaridagi o'quvchi va talabalarning aqliy qobiliyat darajalarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lgan maxsus metodika ishlab chiqdik.

Qisqa tanlov testi o'z ichiga turli sohaga taalluqli bo'lgan, turli murakkabliklarga ega bo'lgan 50 ta topshiriqni qamrab olib, aqliy qobiliyatlarining integral ko'rsatkichlarini aniqlashda, shuningdek, tafakkurning quyidagi "muammoli qism"larini tashxis qilishga mo'ljallangan:

Aqli zaif bolalarning bilim qobiliyatlarni o'stirish uchun qo'yidagi tanlov testlar asqotadi.

1. Materialni umumlashtirish va analiz qilish. Ushbu kategoriyagatestning 20,21, 31, 36, 47,48- jami 7ta topshirig'i kiritilgan bo'lib, ularni to'g'ri bajarish uchun aniq iborani mavhumlashtirishdan, mazmunni tahlil qilish sohasiga va bu sohadan aniq iborani mushohada qilishga qaytish qobiliyati talab etiladi.

16-topshiriq: Quyida keltirilgan so'zlarni shunday tartibda joylashtiringki, ulardan to'g'ri gap hosil bo'lsin. Javob sifatida oxirgi so'zning oxirgi harfini belgilang.

hammaga	Odobli	bola	manzur	
J A	S	U	R	
1	2	3	4	5

bu yerda javob raqami "5". Ya'ni to'g'ri javob "Odobli bola hammaga manzur" shaklida bo'lganligi sababli "manzur" so'zining oxirgi harfi "r" hisoblanadi.

2. Tafakkurining egiluvchanligi. Ushbu kategoriyaga kiritilgan topshiriqlar soni 7 ta (11, 19, 28, 35, 38, 41, 43) bo'lib, ularning yechimi tafakkurning ixchamligi va epchilligini talab qiladi.

11-topshiriq. "Taqillash" va "oqim" so'zlari bir-biriga mazmunan:

1. o'xshash, 2. qarama-qarshi, 3. o'xshash ham, qarama-qarshi ham emas.

Bu yerda to'g'ri javob "3" hisoblanadi. Chunki "Taqillash" va "oqim" so'zlari o'zaro o'xshash ham qarama-qarshi ham emas.

3. Tafakkurning ko'chuvchanligi. Ushbu kategoriyaga kiritilgan topshiriqlar bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tezkor ko'chishni taqozo etadi. Testdagi xilma-xil topshiriqlar qatori avvalgi tajribalardan foydalanishda ko'chuvchanlik mavjud bo'lmagan sinalluvchilarda qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Bunday kishilar tanlagan ish uslubini qiyinchilik bilan o'zgartiradilar, shuningdek ularning intellektual jarayonlari sust va ishlash tempi sekin, aqliy faoliyat mahsullari ham yetarli emas. Ushbu kategoriyada 1, 4, 5, 7, 25 - jami 5 ta topshiriq kiritilgan.

4-topshiriq. 82 97 114 133.....?

Nuqtalar o'rniga yetishmaydigan sonni topib qo'ying.

1.1542.1483.1524.1505.156

Bu yerda 1-javob to'g'ri. chunki bu sonlarda qator o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, ularga ko'payib boruvchi sonlar qo'shilgan. Masalan, 97 soni 82 soniga 15 ni qo'shish natijasida hosil bo'lgan, 114 soni esa 97ga 17ni ko'shish, 133 esa 114 ga 19 ni qo'shib hosil qilingan.

Shu sababli 133 ga 21 ni qo'shsak, 154 hosil bo'ladi. Demak to'g'ri javob 154.

4. Tafakkurning emosional jihatlari (fikrning chalg'ishi): Tafakkur obyektga, muammoga faol yo'naltirilgan bo'lishi shart.

Testning bir qator topshiriqlari tafakkuri emosional jihatdan kam rivojlangan sinaluvchilarning ko'rsatkichlarini tushirib yuboradi. Bunday sinaluvchilar qulay boshlaydilar, eksperimentatorga murojaat qiladilar. Ular muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan impulsiv ta'sirlanish bilan xarakterlanadi. Bu kategoriyaga 24, 25, 26, 27, 30, 31, 39, 44, 46, 50 -jami 11 ta topshiriq kiritilgan.

26-topshiriq. Anvarning yoshi nechada bo'lsa, Xusan ham shuncha yoshda. Anvar Farhodan kichik. Xusan Farhodan katta.

Agar yuqoridagi 2-jumla to'g'ri deb hisoblansa, u holda 3-jumla:

1. to'g'ri 2. noto'g'ri 3. noaniq

Bu yerda to'g'ri javob "2". Chunki Anvar bilan Xusanning yoshi teng bo'lganligi uchun Anvar Farhodan kichik bo'lgan holda albatta, Xusan ham undan kichik bo'lishi shart. Shu sababli, "Xusan Farhodan katta" degan xulosa kelib chiqadi.

5. Idrokning tezligi va aniqligi. Testning bir qator topshiriqlari shaxsdagi rasmiyatchilik qobiliyatini aniqlashga mo'ljallangan. Oliy ma'pumotli mutaxassislar, boshliqlarning ishi muammolarni qisqa vaqt ichida taxlil qilishni, asosiy mazmuni ajratish va sonlarni solishtirishni talab qipadi. Ushbu kategoriya savollari 1, 10, 12, 13, 18, 33, 42 - jami bta topshirikdan iborat.

18-topshiriq. Ikki baliqchi Zbtaliqtutdilar. Birinchi baliqchi ikkinchisiga nisbatan sakkiz marta ko'p baliqtutdi. Ikkinchi baliqchi qancha baliqtutgan?

1. 18 ta

2. 26 ta

3. 32 ta

4. 21ta

5. 4 ta

Bu yerda to'g'ri javob "5", ya'ni, ikkinchi baliqchi 4ta baliq tutgan. Bunda to'g'ri javobni topish uchun barcha topshiriqlarni ko'z yugurtirib avval o'zlari uchun eng qulay bo'lganlarini bajaradilar, keyinchalik esa boshqa tipdagi topshiriqlarni bajarishga qaytadilar.

Ushbu usul bo'yicha natijalar sinaluvchining topshiriqlarni bajarish jarayonidagi harakatlari hisoblanadi.

8. Fazoviy hayol. Testda ikki o'pchamli fazoviy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan 4 ta topshiriq keltirilgan, Bular 17,29,37,49 topshiriqlardir.

49-topshiriq: Quyidagi shakllardan qaysi biri boshqalaridan ko'proq farq qiladi ?

Bu yerda to'g'ri javob "3". Chunki bu shakl uchburchak, qolganlari esa ko'pburchak hisoblanadi.

Javoblar bo'yicha sinaluvchi akliy qobiliyatining ustuvor jihatlari quyidagi jadval asosida taxyail qilinadi,

$8 \times 4 = 32$ va $36 - 32 = 4$ amallari bajariladi.

Demak, to'g'ri javob 4.

6.Tildan foydalanish (savodxonlik). Ushbu kategoriyaga taalluqli topshiriqlar sinaluvchilarning tildan to'g'ri foydalanishi, savodxonlik, chet tilida elementar bilimlarni egallaganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan.

Ushbu kategoriyada 2, 3, 6, 8, 9, 13, 14, 15, 22,45 - jami 11 ta topshiriqlar kiritilgan.

3-topshiriq. Berilgan so'zlardan qaysi biri boshqalaridan farq qiladi?

1. haqqoniy 2. shubhali 3. ishongan 4. sodiq 5. ishonch Butopshiriq javobi "5", chunki haqqoniy, shubhali, sodiq, ishonchli so'zlari "qanday?" savoliga javob berib, ular sifatni bildiruvchi so'zlar hisoblanadi. Ishonch so'zi esa "nima?" so'rog'iga javob berib, ot so'z turkumiga kiradi.

7.Qulay usulni tanlash. (Mo'ljal olish.) Ko'rsatmaga binoan test topshiriqlarini istalgan ketma-ketlikda bajarish mumkin. Ayrim sinaluvchilar sonlar qatorini, ayrimlari esa verbal topshiriqparni yengil bajaradilar.

Ular barcha topshiriqlarni ko'z yugurtirib avval o'zlari uchun eng qulay bo'lganlarini bajaradilar.

Keyinchalik esa boshqa tipdagi topshiriqlarni bajarishga qaytadilar ushbu usul bo'yicha sinaluvchining topshiriqlarni bajarish jarayondagi harakatlari hisoblanadi.

Sinaluvchining umumiy javoblari quyidagi jadval asosida tekshirilib, ballari jamlanadi va tegishli mezon bilan baholanadi.

Bu yerda sinaluvchi barcha topshiriqlarga to'g'ri javob berib, 166 ball to'plashi mumkin, ya'ni maksimal ball -166 ga teng.

To'g'ri javoblarning umumiy soni aniqlangandan so'ng, hisob jadvalidan foydalanib sinaluvchi tomonidan to'plangan ballar aniqlanadi.

2.2. Aqli zaif bolalarni ta'limga o'rgatishda ruhiy jarayonlarning ta'siri

Yordamchi maktablardagi ta'limning umumiy vazifalari maxsus aqli zaif o'quvchilar nuqsonlarini tuzatish vazifasi bilan birga olib boriladi. Shu sababli yordamchi maktablardagi ta'limning asosiy, zaruriy xususiyatlaridan biri uning nuqsonni tuzatishga yo'nalganligida bo'lsa, ikkinchi xususiyati, uning bolaning rivojlanishida o'ziga xos amalga oshirilishidadir. Bosh miya faoliyatlari nuqsoni asosida aqli zaif o'quvchilarning rivojlanishi cheklangan bo'lib, orqada qoladi. Aqli zaif bola kam rivojlangan emas, balki o'zgacha rivojlangan va rivojlanayotgan boladir. Uning rivojlanishi nuqsonli ravishda boradi. Aqli zaif o'quvchining bilish faolligi va mustaqilligi birmuncha past bo'ladi. Bu kamchilik ularning bevosila hayot qiyinchiliklariga duch kelganlarida namoyon bo'ladi.

Meyyordagi ommaviy maktab o'quvchilari ma'lum voqealarga e'tibor berib, nlar haqida bilim egallasalar, aqli zaif o'quvchilar bu voqealarni sezmasliklari mumkin. Bu holat. yordamchi maktablardagi ta'lim-tarbiyani qiyinlashtiradi. Shunga qaramasdan yordamchi maktab ta'limi bu o'quvchilarda faollik, mustaqillikni rivojlanirisluga xizmat qilishi kerak. Shuni ta'kidlash o'rinliki, aqli zaif o'quvchilardagi buzilgan ruhiy jarayonlar maxsus pedagogik ta'sirga yaxshi beriladi. Shu sababli yordamchi maktab ta'limida «yaqin orada rivojlanishi mumkin bo'lgan zbn»ga alohida e'tibor beriladi.

Yordamchi maktab ta'limining - uchinchi, o'ziga xos xususiyati ta'lim nazariyasi va amaliyotining bog'liqligidir. Yordamchi maktab ta'limi amaliy yo'nalishga ega. Amaliyot aqli zaif bolalarning nazariy bilimlarni egallasilariga yordam beradi hamda ular amaliyotda qatnashib, nazariy bilimlarini oshirib boradilar.

Yordamchi maktab ta'limining ko'rgazmaliligi ham uning o'ziga xos tomonlaridan biridir. A. N. Graborovning ta'kidlashicha, ko'rgazmalilik icirok, tas; -iwurlai"ni tuzatishga inikoniyat yaratadi. Sliu sahabli yordamchi maktabiarda ko'rgazmalilik ommaviy maktablardan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega.

Aqli zaif bolalar ko'rgazmalilik orqali narsa, voqealarning ichki mohiyatini tushunib boradilar. Shu orqali ularning fikrlash faoliyatlari to'g'rilanib boradi. Har

qanday ko`rgazmalilik bilan maqsadga erishish mumkin emas. Balki ko`rgazmalilik og`zaki tushuntirishlar bilan birga namoyish etilgani kutilgan maqsad qilish mumkin. Shundagina aqli zaif bolalarning nutqai, tafakkuri birga rivojlanib boradi, yordamchi maktab ta'limi jarayonida aqli zaif bolalarning faol emasligini, mustaqil ishlashlarining chegaralanganligini e'tiborda tutish kerak. Aqli zaif bolalardagi bu xususiyatlaryordamchi maktab talimining oxirida ham normal tengdoshlariga yela olmaydi. Shu sababli yordamchi maktabning barcha sinflarida o`qituvchilar bu kamchiliklarni bartaraf etib borishlari kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, yordamchi maktab talimi sodda, o`quvchilar nuqsoniga moslab, mexanik tarzida berilishi tufayli har doim ham kutilganday natija bermaydi. Shu sababli o`quv materiallari qancha sodda bo`lmasin, albatta ongli, tushunarli tarzda berilishi kerak. Shundagina bu ta'lim o`quvchilar nuqsonlarini tuzatishga yordam beradi. Yordamchi maktabdagi ta'lim o`qituvchili va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo`lib, o`quvchilarning bilishi olishiga, zarur ko`nikma va malakalar hosil qilishlariga xizmat ko'rsatadi.

Oligofrenopedagogning faoliyati deganda o`qitish, yordamchi maktab o`quvchilariga bilim berish tushuniladi. Talimda esa o`qituvchining vazifalari birmuncha kengayadi, ya'ni o`qituvchi bilim berish bilan kifoyalanib qolmasdan, ko`nikma, malakalar ham beradi. Mustaqil bilim egallash yo`llarini tushuntiradi. Shu bilan birga o`quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qiladi va uni boshqarib boradi. O`quvchilar faoliyati deganda ularning ma'lum bilimlar yig`indisini egallab borishlari tushuniladi. Ta'lim bilan o`qish bir-biri bilan uzviy bog`liq. Bilim egallash ta'lim jarayonining asosini tashkil qiladi va uning asosiy mohiyatini belgilaydi.

Bilim, ko`nikma, malakalar egallash jarayonida aqli zaif o`quvchilarning bilish jarayonlari shakllanib boradi hamda ularning hissiyot-iroda sifatlari rivojlanadi.

Shular oqibatida o`quvchilarning bilimga qiziqishi, ish qobiliyatlari, tirishqoqlik kabi shaxsiy sifatlari takomillashib, ular bir butunligicha tarbiyalanib, hayotga bo`lgan munosabatlari shakllanib boradi.

Shunday qilib, yordamchi maktabda ta'lim va tarbiya yagona o'quv jarayoniga aytanadi. O'qituvchi o'quvchilarni o'qitish bilan birga ularni tarbiyalaydi ham. Ta'lim, tarbiya shaxsning rivojiga qaratiladi. O'quv jarayoni ta'lim, tarbiya, kamolot birligini ta'minlaydigan murakkab jarayondir. Bu haqida oldingi bo'limda fikr yuritilgan edi. Ta'lim, tarbiya, kamolot bog'liqligining murakkabligi asosan ikki omil bilan belgilanadi. Birinchi o'rinillarini, tarbiya, rivojlanish jarayonining tashqi sharoitlari (o'qiluvchining mahorati, uning malakasi, shaxsiy sifatleri, ta'lim-tarbiyani tashkil qilishi, ta'lim-tarbiya usullarining maqsadga qaratilganligi) bo'lsa, ikkinchi omil – ta'lim, tarbiya va rivojlanish jarayonlarining ichki tomoni bo'lib, bular o'quvchilarning yosh, individual va xarakter xususiyatlaridir. S.L.Rubinshteyn haqli ravishda tashqi sabablar, taassurotlar ichki sharoit orqali ta'sir qiladi, degan edi. Shu sababli o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil qilishda ularning barcha xususiyatlarini e'tiborga olish bilan birga, ichki holatlarini, muayyan, yakka bola xususiyatlarini ham nazarda tutishi darkor.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanib boradi. Pedagogikadan ma'umki, bilim deganda insoniyat tomonidan egallangan obyektiv, muayyan tushunchalar, fikr yuritish, qonun va qoidalar tushuniladi. Ta'lim orqali berilayotgan bilimlar ilmiy xarakter kasb etgan borishi shart. O'quvchilar ongida to'g'ri bilimlarni shakllantirish uchun ta'limda xususiyydan uni bilim o'lish tamoyili asosida ish yuritiladi.

Bilim bilan malaka uzviy bog'liqdir. Bolalar ma'lum bilimlar asosida misol, masala yechadilar, grammatik tahlil qiladi. Aqli zaif bolalarda analitik-sintetik faoliyat stereotip mazmunda bo'lganligi uchun ular ko'p hollarda samarali faoliyat usullaridan foydalana olmaydilar.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish ham yordamchi maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biridir. o`quvchilarning bilimlarni egallashlari asosida ko`nikma va malakalar shakllanib boradi va bu o`qituvchidan alohida e'tiborni talab etadi. Aqli zaif bolalardagi dunyoqarashning juda murakkab va dinamik jarayon ekanligi barcha ta'lim bosqichlarida izchil ish olib borishni talab etadi. Har bir insonning hayotida yangi bilimlar, tajribalar oldin egallangan bilimlar tizimiga albatta ta'sir etadi. Yangi bilim, dalillarni egallab borish asosida bolalarning atrof-ruhiyatga, boshqa kishilarga munosabati o`zgarib boradi. Shu tariqa ta'lim jarayonida aqli zaif bolalarda uni o`rab olgan muhitga munosabatning dinamik tizimi tarkib topa boradi.

Bilimlarni egallash, o`rganish xos ravishda bir necha bosqich asosida yuz beradi. Bilishning birinchi bosqichida narsa, voqealar idrok etilib, qisman tushuniladi. Bu bosqichda yordamchi maktab o`qituvchisining asosiy vazifasi mumkin qadar bolalarning idrok etishini osonlashiradigan ishlar bo`lishi lozim. Yangi bilimlar egallash uchun asos bo`la oladigan narsa oldingi bilimlarning qanchalik mustahkam o`zlashtirilganlik darajasidir. Bolalarning qiziqishlari, o`quv materiallarini qanchalik tushunishlari ularning sezgi va idrok xususiyatlariga bog`liq. Bu omillar ular bilish faoliyatlarining o`ziga xosligidan ham kelib chiqadi.

Aqli zaiflik nuqsonida sezgi va idrok birmuncha saqlangan ruhiy jarayondir. Mnrkaziy asab sistemasidagi organik jarohatlar natijasida ba'zan ayrim anajizatorlar ishida patologik o`zgarishlar kuzatiladi. Aqli zaif bolalarning sezgi va idrok xususiyatlari ularning tafakkuri, nutqi va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanmaganligi bilan yaqin aloqada bo`ladi. Materiallarni dastlabki idrok etish asosida taqqoslash, sodda umumlashtirishlar amalga oshiriladi. Shu sababli o`qituvchi o`quvchilar faoliyatini shunday tashkil etishi kerakki, dastlabki idrok vaqtida materiallar mazmunini ular tushunsinlar. o`qiluvchi savoilar orqali bolalarning idrok, tushunish darajalarini aniqlab boradi. Ayrim hollarda o`quv materiallarini egallashlarida ifodalilik, hissiy kayfiyat ham katta rol o`ynaydi. Shu asosda idrok etilgan o`quv materiallari tushunilib boriladi.

Shu vaqtdan boshlab materialni to`la tushunish boshlanadi. O`quvchilar ayrim narsa, holat, voqealarni boshqaiari bilan taqqoslaydilar. Ular orasidagi

bog`liqlikni topadilar, tahlil qiladilar. Shular asosida umumiy xulosa chiqaradilar. Bu bosqichda o`qituvchining muhim vazifasi mumkin qadar bolalarning fikrlash imkoniyatlarini faollashtirishdan iboratdir. Bu bosqich o`zining murakkabligi bilan boshqa bosqichlardan ajralib turadi. Chunki aqli zaif bolalardagi asosiy nuqson tafakkurning rivojlanmaganidir. Bolalarning tasavvuri bilimlarni egallashda sezgi bosqichidan tafakkur bosqichiga o`tdigan bog`lovchi ko`prik bo`lib, yordamchi maktab o`quvchilarida tushunchalar, bilimlar shakllanishida asos vazifasini bajaradi. Yordamchi maktab o`quvchilari tasavvurining yuzakiligi, kambag`alligi, aniq emasligini ta'lim jarayonida turatib borish talab etiladi.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasining kelajagi ko`p jihatdan hozirgi yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishiga.

O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi Qonunida, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", shuningdek, maktabgacha tarbiya va boshlanrich maktab konsepsiyalarida ta'lim tizimini takomillashtirish bilan borliq tamoyillarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish hamda bu borada islohotlarni quyi bosqichdan boshlash lozimligi alohida ta'kidlangan. Ta'lim tizimining samaradorligi esa o`qitishdagi ilg`or usullarni va maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang`ich ta`limga tayyorlash muammosini to`g`ri hal etish orqali erishish mumkin. Ayniqsa, aqli zaif bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash, maxsus maktablarda o`qitishning samarali usullarini amaliyotga tatbiq etish soha mutaxassislari oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo`lib turibdi. Shunga borliq ravishda aqli zaif bolalarning psixik rivojlanishini har tomonlama o`rganishning nazariy va amaliy ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Aqli zaif bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash jarayonida ularning maktab dasturini o`zlashtirishga nutqiy jihatdan tayyorgarliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nutq inson faoliyatini boshqarish vositasidir. U xotira va idrok jarayonlarini boshqaradi, predmetlarni tanish va farqlashni osonlashtiradi. Nutq hissiy kechinmalarning shakllanishida ham katta o`rin tutadi.

Aqli zaif bolalarning borlangan nutqining xususiyatlarini eksperimental o`rganish natijasida quyidagilar aniqlandi:

- maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning borlangan bayonlari tor, parcha tarzida bo'lib, hikoyalarida mantiqiy ketma-ketlik, alohida qismlar bilan bogliqlik yo'qligi namoyon bo'ldi. Borlangan matnlar ko'pincha bir butunlikni hosil qilmaydigan alohida qismlardan iborat bo'lib, qisqa bayon etish bilan xarakterlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan 2005 yilni mamlakatimizda "Sihat salomatlik yili" deb e'lon qilinishi mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga, onalik va bolalikning qay darajada muhofaza qilinishiga bog'liqligini anglatadi.

Davlat va jamiyatning shaxsni har tomonlama rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji maxsus ta'lim oldiga bir-qator muhim va o'ta dolzarb vazifalarni hal qilish majburiyatini qo'ymoqda. Aynan mana shunday korreksion vazifalardan biri yordamchi maktab o'quvchilarini sog'lom turmush tarziga tayyorlashdir. Buni esa yordamchi maktabda o'quvchilarigi gigiyenik va ekologik ta'lim-tarbiya berish orqaligina amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Abu Abdullox Rudakiy, Abul Qosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Kaykovus, Abu Ali ibn Sino, Sa'diy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqa buyuk allomalar pokizalik, tan va ruh pokligiga juda erta e'tibor berish lozimligi va bu tushuncha dastlab oilada shakllantirilishi kerakligini ta'kidlanadi.

Qomusiy olimlarimizning asarlarida gigiyenik va ekologik tarbiyaga oid fikr va mulohazalari ibratli hikoyalar, she'rlar tarzida ham bayon etiladi. Insonning hayot sharoiti va tabiiy muhitning muhofazasi masalasi bilan ko'p vaqtlardan beri gigiyena fani shug'ullanadi.

Gigiyena fanining hal etish va aniqlash vazifasi - bu insonning faoliyati va ta'siri natijasida atmosferada ro'y berayotgan gigiyenik o'zgarishlarning, ya'ni biosferada zaharli elementlarning migrasiyasi va ularning inson organizmiga ta'siri, biosferada konserogen kimyoviy mutogen moddalarning tarqalishi organizmlarning nomaqbul zararli moddalarga qarshi ko'rashishidan iboratdir.

Turar joy gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi, bolalar va o'smirlar gigiyenasi – bularning hammasi ekologiya va tabiat muhofazasi bilan uzviy bog'langandir.

Inson salomatligi, uning hayot kechirishi, keksayguniga qadar ish qobiliyatini saqlab qolishi ko'p asrlardan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

2.3. Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonidagi muammolarni bartaraf etishning korreksion, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni kompleks tashkillashtirish

Ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashni tashkillashtirayotgan psixolog quyidagilarga amal qilishi lozim:

- individual ravishda ish reja tuzib chiqish;
- qaysi psixik jarayonni sust, qaysi bir jarayonni faol va dominantligini aniqlash (nevrolog, psixonevrolog, nevropotolog hamda psixiatr ko'magida);
- bolaning individual xususiyatlarini kompleks ravishda tadbiq etish;
- bolaning psixologik holatlarini (stress, zo'riqish, depressiya va hokazo) doimiy ravishda kuzatib borish va daftarda qayd etish;
- harakatli o'yinlaridan asta-sekin aqliy o'yinlarga o'tkazib borish, hamda o'yinlar asosida diagnostikasini amalga oshirish;

Hatti-harakatlarini o'z izohlovchi psixologik usullardan foydalanib, bola haqidagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni baholab borish;

Psixologik o'zgarishlarni va o'zgarishlar natijasiga asoslab, shaxlab borish;

Aqliy rivojlanuvchiga ta'sir etuvchi turli xil trening o'yin, suhbat va ertaliklar hamda sahna ko'rinishdagi muammoli vaziyatlardan qa'tiy reja asosida uyushtirilib, bolaning ruhiy taraqqiyotiga ta'sir etish;

O'zining status (jamiyatdagi o'zining o'rni) hamda atributini yaxlit aks ettirishga yordam berish. Mazkur status va atributini rivojlantirishga ta'sir etish, psixolog xizmatining asosi hisoblandi.

Psixologik jarayonlarni amalga oshirgan faoliyati natijasiga ko'ra bahoash va rag'batlantirishni tashkil etish;

Ruhiy kamchilikka ega bo'lgan bolalarni differensial (solishtirish) psixologiya nuqtai nazardan tadbiqiy jihatdan o'rganish;

1. avvalgi yoshi bilan hozirgi yoshini differensiya qilish (psixologik usullar yordamida);
2. o'yin faoliyatini asta-sekin o'qish faoliyatiga yo'naltirish va tayyorlov.

Biz yuqorida ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar bilan ishlovchi psixologni xizmatini tashkil etishni asosiy yo'nalishini ko'rsatib o'tdik. Aslida esa

har biri yo'nalishlarga bo'linib ketishi tabiiydir. Psixolog o'z faoliyatini tashkil etarkan, unga ilmiy yondashib kompleks tahlilga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Aqliy va jismoniy rivojlanishida orqada qolish ba'zi hollarda yengilroq bo'lib, asosan emosional, iroda sohasining uncha yetuk bo'lmaganligiga taaluqlidir. Bu topshiriqlarni bajarishda e'tiborni bir joyga to'play olmaslikda namoyon bo'ladi. Boshqa hollarda – yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarga tafakkurning kamol topishida muayyan keyinda qolish qo'shiladi. Ana shu xususiyatlarning hammasi ko'pincha ta'lim-tarbiya ishidagi kamchiliklar tufayli chuqurlashib ketadi. Ammo barcha tafovutlarga qaramay, bu bolalardagi umumiy xususiyatlar saqlanib, ularda o'zidan kichikroq yoshdagi bolalarga xoslik ko'rinadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishda keyinda qolishi agar o'z vaqtida to'g'ri pedagogik-psixologik usul bilan ta'sir etish, keyinchalik ularning holatidagi kamchiliklarning o'rnini to'ldirish imkonini beradi.

Bunday bolalarga nisbatan maxsus tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi, umumiy mustahkamlovchi davolash, osoyishta rejim va o'quv proressida individual yo'l tutish tadbirlari ko'riladi. Bolalar shaxsiyatidagi ijobiy va eng kuchli tomonlardan: faollik, nutqning yaxshi rivojlanganligi, motorikanmng puxtaligi, to'laqonligi intellektual imkoniyatlardan foydalaniladi. Psixolog bolalarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada bo'lmog'i lozim.

Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda psixolog turli xil testlardan, trening mashg'ulotlardan oqilona foydalansa, ancha qisqa muddat ichida qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Psixolog bolalarning ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash va o'rnini to'ldirishdek (kompensasiyalash) murakkab vazifani amalga oshirmori uchun u bunday bolalarni ma'lum darajada bilib olishi lozim.

Bu psixologik tekshirish, kompleks va har tomonlama tekshirishni ya'ni pedagogik-psixologik o'rganishdan tashqari, medisina yo'li bilan ham tekshirish, bolaning ruhiy rivojlanishi qanday borayotganini, kasallikning paydo bo'lishi va xarakteri jismoniy jihatdan o'sish darajasi, sog'liq holati, nerv sistemasining, ko'zi, qulorining xususiyatlari, intellektning emosional-irodaviy sohasining xususiyatlari, psixik faoliyatining xarakteri to'g'risidagi ma'lumotlar logopedik tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

Ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan yoki nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida psixolog birinchi galda bolaning ishonchiga kirib olishga erishishi lozim. Bizga ma'lumki, har bir bola, ishonchiga kirgan shaxs bilangina bevosita o'z kechinmalari bilan o'rtoqlashadi.

Quyida biz ruhiy rivojlanishida nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan psixologik xizmatni tashkil etish yo'nalishlari haqida to'xtalamiz:

ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarni sof psixologik tomondan kompleks tashxis qo'yish;

bunday bolalar bilan olib boriladigan ish rejasini qat'iy bilib olish;

- turli xil o'yin faoliyatlarini tashkil etish; a) harakatli b) guruhviy v) aqliy o'yinlar.

o'z-o'zini kuzatish usulini qat'iy tartib asosida olib borish;

psixolog doimiy ravishda psixiatr va pediater konsultasiyasini o'tkazish;

psixolog ota-onalar bilan muloqotda bo'lib, boladagi o'zgarishlarni qat'iy tartibda bayonnomada aks ettirish;

boladagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni baholab, uning mohiyatini ochib borish;

psixolog bunday bolalar bilan ish olib borishda soddadan murakkabga emas, soddadan-soddaga prinsipiga amal qilish;

- psixologik treninglar orqali bolaning «men»iga bo'lgan munosabatini shakllantirib borish.

Biz yuqorida qayd etgan 3 xil ko'rinishdagi bolalar maxsus jihozlangan, maxsus dastur va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagoglar mujassamlashgan maktablarda o'qishlari hammamizga ma'lum. Bu maktablar maxsus kar-soqov (surdo), ko'zi ojiz (tiplo), ruhiy kamchilikka ega bo'lgan, algofren (paranoyidlar) maktab-internatlari deb nomlanadi.

Yuqoridagi maktab-internatlarda, maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida, bolalarning psixologik va jismoniy rivojlanishiga nisbatan, psixolog-pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Keyingi vaqtda ko'pgina ota-onalar bunday bolalarni uyda tarbiyalashlari, maxsus maktabgacha muassasalarga murojaat etmasligi tez-tez uchrab turadi. Bu esa o'z navbatida bolaning maxsus maktabda o'quv faoliyatini amalga oshirishda katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining o'ziga xosligiga ko'ra alohida tayyorgarlikka ega bo'lgan psixologlarni jalb etilishini talab etadi. Biz har bir bolani jamiyatimiz a'zosiga aylantirar ekanmiz, u qanday ko'rinishga, qanday kamchilikka ega bo'lmasin, o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlarga ega bo'ladi.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning individual xususiyatlarini to'g'ri baholash, psixologning asosiy vazifasidir.

Individual xususiyatida bolaning qiziqishi, layoqati, qobiliyati, harakteri, temperamentini, bilimlarni o'zlashtirish xususiyati yotadi. Maxsus psixologiya fanidan ma'lumki, biror bir psixik jarayon yoki resiptorn dominanta vazifasini bajaradi. Ana shu dominantani aniqlab, shu asosida bolaning yashirin qobiliyatini ochib yuborish mumkin. Buning uchun avval bolani temperamentini aniqlab olish va xarakter xususiyatini belgilab olish lozimdir. Bundan tashqari bolaning qiziqishi va layoqatini aniq diagnostika qilib olib, shu asosida bolalar bilan fakultativ, qo'shimcha darslar uyushtirish psixologning vazifasidir. Demak, maktabgacha tarbiya muassasa psixologi bolaning faoliyatini to'g'ri yo'naltirib berishi, uning eng asosiy vazifasidir.

Yuqoridagi mulohazadan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, har bir bolaning o'ziga xos xususiyati mavjud ekan, ana shu xususiyatlardan to'g'ri foydalanish, jamiyatning katta yutuqlariga sababchi bo'lishi mumkin.

Bunda esa psixologning tutgan o'rnini beqiyosdir. Mehr va muruvvat faqat xayr-ehson bilan belgilanmaydi, aksincha jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'zlarini imkoniyatlarini namoyon etishga yo'l ochib berish hamdir. Psixologlar bu sohada imkonlari boricha harakat qilsalar, ularga yordamchi bo'lgan tashkilotlar ijodiy yondashsalar, Prezidentimiz tomonidan qo'yilayotgan «Sog'lom avlod» dasturi va belgilangan o'lgan vazifalar asosida xal etilib, jamiyatning har bir a'zosining barkamol insonlar qatoridan joy olishi tabiiy holdir.

Korreksion tahlil ruhiy holatlarning belgilari orasida o'zaro bogliqlik borligini aniqlashga yordam beradi.

Dispersion tahlil bola ruhiyatiga ta'sir etadigan omillarning biz o'rganayotgan belgiga ta'sir rolini aniqlashga yordam beradi.

Yuqorida bayon etilgan qator usullar bola ruhiyatini o'rganishning asosiy usullari sanaladi. Bolalar ish faoliyati natijalarini o'rganish, tahlil etish esa qo'shimcha usullarga kiradi. Bolalarning yozma ishlari, chizgan rasmlari, yasagan buyumlari, mehnat mahsulotlari kiradi. Yordamchi maktablarda aqli zaif bola ruhiyatini o'rganishda anamnestic usuldan ham keng foydalaniladi. Katamnez-kasal haqida uzoq muddat davomida yigilgan ma'lumotlardir. Bu usul, ayniqsa, tibbiyotda keng qo'llaniladi. Yordamchi maktabni bitirgan o'quvchilarning katamnezi orkali yordamchi maktablardagi korreksiy, tarbiyaviy ta'limning samaradorligini oshirib borish mumkin. Ruhiyatni o'rganishning alohida, o'ziga xos samarali usullaridan biri testlardan foydalanishdir.

Shuni e'tirof etish juda o'rinliki, testlar ruhiyatni o'rganishning yaxshi usuli ekanligi uzoq yillar davomida bizning mamlakatimizda yetarlicha tan olinmadi. So'nggi yillarda bu kamchiligimiz to'g'rilanmokda. Testlar asosan tekshirilayotgan bolada U yoki bu sifat, egallagan bilimlar darajasi, bolaning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Turlicha tuzilishga, mazmunga ega bo'lgan testlarni qo'llash orqali bolalarning aqliy kayffisenti aniqlanadi.

Albatta, testlarni qullash bizga kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni yetarli darajada bera olmasligi mumkin. 1969 yilda Vashingtonda psixiatrlarning kengashida bolalarning aqliy koeffisientining faqatgina testlardan foydalanmasdan, balki qo'shimcha tarzda boshqa usullardan ham foydalanish tavsiya etildi. Testlarni qo'shimcha vositalar sifatida ko'llash taklif qilindi. Asosiy usul esa, bolani birmuncha uzoq muddat tibbiy, pedagogik, psixologik tekshirish o'rinli ekanligi ko'rsatib o'tildi. Lekin, barcha usullar orasida tekshiruvchining "diagnostik ko'zi" katta ahamiyatga ega.

Qisqacha ayrim uslubiyatlar ustida to'xtalib o'tamiz.

Segen taxtachasi umuman, barcha bolalarning, xususan aqli zaif bolalarning tafakkur jarayonlarini tekshirish uchun qo'llanilishi mumkin. Segen doskasining tuzilishi quyidagicha: 10 ta geometrik figurani olib maxsus karton yoki fanerda shu geometrik figuralar shaklida chukurchalar o'yiladi. Uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, aylana, romb, to'g'ri turtburchak, trapesiya kabi geometrik figuralarni tushuntirish asosida bolalardan tegishli chuqurchalarga joylashtirishi talab etiladi. Ish tartibi quyidagicha: dastlab tajriba o'tkazuvchi bolalarga chuqurchalarga joylashtirilgan taxtachani ko'rsatadi. Shundan so'ng u taxtachadagi figuralarni to'kib tashlaydi va bolalardan yana figuralarni o'z joylariga joylashtirishni so'raydi. Bu usul ayniqsa, chuqur aqli zaif bolalarni bog'cha yoshida urganishga yordam beradi. Bola gapirmasligi ham mumkin. Bu usulning turli variantlari bor. 2 yoshli bolalar uchun 4 ta figurali, undan katta bolalar uchun esa, 10 ta figurali varianti bor. Aqlan normal bolalar 2 yoshdan boshlab bu ishni to'g'ri bajara oladilar. Aqliy nuqsonlilar, ayniqsa chuqur aqli zaif bolalar geometrik figuralarni paypaslaydilar, og'izlariga olib ko'radilar, ularni stolga urib taqillatadilar. Maqsadsiz harakat qiladilar, sinov va xato usullardan foydalanadilar. Bu bolalar ko'rsatilgan yordamdan foydalana olmaydilar. Tajriba o'tkazuvchining berayotgan ko'rsatmasini idrok qilishi, tushunib yetishi ham diagnostik ahamiyatga ega. Usulning sodda tuzilishga egaligi sababli, har bir o'qituvchi, tarbiyachilar mustaqil ravishda yasab foydalanishlari mumkin.

Koos uslubiyati 1923 yilda amerikalik psixolog Koos tomonidan ishlab chiqilgan. Bu uslubiya bolaning fazoda mo'ljallanish, jadvaldagi figuralarni tahlil qila bilish, fahm-farosat, diqqatlilik holatlarini o'rganishga mo'ljallangan. Kubiklar 16 ta bo'lib, barchasining tomonlari bir xil rangda bo'yalgan. Havo rang, qizil, sariq, oq, oq-qizil, sariq-havo rang kubiklar tomonlarining ranglaridir. Bolalarga taklif etiladigan jadvallar murakkabligiga kura: to'rt, tuqqiz yoki o'n otita kubiklardan iborat bo'ladi. Bu usulni 4 yoshdan boshlab, undan katta yoshdagi bolalarga ham tavsiya etish mumkin.

Tekshirilayotgan bolaga ma'lum jadval va kubiklar beriladi. Boladan jadvalda tasvirlangan figurani yasash so'raladi. Mumkin qadar sodda jadvallardan boshlash maqsadga muvofiq. Bu usulning qimmatli tomonlaridan yana biri shundaki, bola tajriba o'tkazuvchi bilan muloqotga kirmasligi mumkin. Shunda bola gapirma ham, qo'l bilan topshiriqni bajarishi mumkin. Bu usul bilan ishlash jarayonida shunga amin bo'ldikki, akliy nuqsonlilar, aksariyat normal bolalar ham bu usul bilan qiziqib ishlashar ekanlar. Bu esa tajriba o'tkazuvchi uchun juda katta narsa.

T o' r t i n c h i s i o r t i q c h a

Bu uslubiya o'zining soddaligi bilan ajralib turadi. Uning nomidan ko'rinib turibdiki, biror narsaning to'rtinchisi ortiqcha ekan. Bu uslubiyaning juda ko'p variantlarini mustaqil ishlab chiqish mumkin. U asosan tafakkurning turli tomonlarini o'rganishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalarning umumlashtira olish qobiliyatini juda yaxshi ochib beradi.

Uslubiyaning mazmuni quyidagicha: mevalar, o'simliklar, daraxtlar, hayvonlar, idish-tovoklar, kiyim-kechaklar, uquv qurollari va hokazolardan 4 ta rasm olinadi. Shu rasmlarning 3 tasi bir toifaga, 1 tasi boshqa toifa narsalarga xos bo'lishi darkor. Bola tasvirlangan 4 ta rasmning qaysi biri ortiqcha ekanligini aniqlashi kerak.

Bu uslubiyaning bogchagacha, bog'cha, kichik maktab, o'rta maktab yoshidagi bolalarga ham qo'llash mumkin, aqliy saviyaning pastligiga qarab, birmuncha katta yoshdagi bolalarga ham tavsiya etsa bo'ladi.

Dembo Rubinshteyn S. Ya. Uslubiyati:

Bu uslubiyat - Amerikada ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik S.Ya.Rubinshteyn tomonidan qayta ishlangan. Bolalarning o'z-o'zlariga baho berishlari, o'zlariga tanqidiy qarashlari o'rganiladi. Asosan, shaxsiy sifatlarning qay darajada shakllanganligini ko'rsatib beradi. Buning uchun bolalarga quyidagi topshiriqlar beriladi: sogliq, aql, xarakter, baxt, go'zallik kabi tushunchalar taklif etiladi. Bu tushunchalarning 9 ta darajasi yoki sifatini bolalar o'zlariga mos tarzda tanlashlari taklif etiladi. Bu darajalar narvon shaklida, yuqoriga ko'tarilgan sari bu tushunchalardagi sifatlarni kamayib boradi. Masalan, aql tushunchasida 1 daraja eng aqlli hisoblansa, 9 daraja esa eng aqlsiz daraja sifatida belgilangan va hokazo. Bolalarning har bir tushuncha bo'yicha bergan javoblari maxsus jadvalda birlashtirilib, ularning normal tengdoshlarinikiga taqqoslanilsa, juda qiziqarli manzaraning guvohi bo'lamiz. Olingan ma'lumotlar asosida bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarimizni maqsadga muvofiq tarzda rejalashtirishimiz mumkin.

Veksler uslubiyati:

Bu uslubiyat o'zining tuzilishi, hajmining nihoyatda kengligi bilan boshqalardan tubdan farq qiladi. U 1949 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida yaratilgan bo'lib, 5 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni atroflicha tekshirishga mo'ljallangan. Uslubiyat qator mamlakatlarda qayta ishlangan. "Bizda D.Veksler uslubiyati juda keng tarqaldi. Test normal bolalarni oligofren bolalardan ajratishda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy faoliyatlarini o'rganishda, o'zlashtirmaslik sabablarini taxlil qilishda qo'llanildi. Barcha tekshirishlarda test o'zining yukri ishonchliligini ko'rsatdi... Veksler testining afzalligi shundaki, u faqatgina intellektning umumiy darajasi haqida tasavvur hosil qilmasdan, balki uning tuzilishi haqida ham ma'lumot beradi. Bularni verbal va noverbal intellektual sifatlarni tekshirishda qo'lga kiritiladi. Bu ma'lumotlar bola akliy faoliyatining qaysi tomonlari kamroq shakllanganligi va qaysi tomonlar bilan qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi..".

Yuqoridagi ijobiy fikrlar Veksler uslubiyatiga berilgan obyektiv bahodir. Albatta, barcha uslubiyatlarda bo'lganidek, bu uslubiyat ham air im juz'iy kamchiliklardan holi emas. Ammo, bu kamchiliklar uning ahamiyatini kamaytira

olmaydi. U ikki qismdan iborat. Birinchi 6 ta test bolalarning verbal, krlgan 6 tasi noverbal akliy faoliyatlarni o'rganishga xizmat qiladi. Testlar Quyidagicha nomlanadi.

1. Bolaning umumiy xabardorligini aniklashga xizmat qiluvchi test.
2. Bolaning tushunish qobiliyatini aniqlovchi test.
3. Matematik bilimlarni o'rganuvchi test.
4. Tushunchalar orasida analogiya va uxshashlikni topishga oid test.
5. Bolalarning lugat boyligini urganuvchi test.
6. Raqamlarni qaytarish.
7. Suratlardagi yetishmaydigan qismlarni topish.
8. Suratlar ketma-ketligi.
9. Kubiklardan figuralar tuzish.
10. Ayrim qismlardan obyektlar yasash.
11. Kodlash.
12. Labirint.

Aqliy taraqqiyotdagi kamchiliklar ko'p hollarda bogcha, maktabga tayyorlov davrlarida ham kuzga tashlanmaydi. Bu qiyinchiliklar bolaning maktabga kelib, turli fanlardan bilimlar ola boshlaganlaridan keyin kuzga tashlana boshlaydi. Boshlangich sinflardagi o'zlashtirmovchi uquvchilarning katta qismini ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tashkil etadi. Ma'lumki, bu bolalarning klinik kurinishi turli-tumandir. Bu bolalarda aqliy taraqqiyotning turli darajada, turli mazmunda buzilganligini kurish mumkin. Ularning potensial imkoniyatlari ham turlichadir. Bu bolalarga nisbatan noto'g'ri qilingan ayrim pedagogik munosabat faqatgina ulardagi orqada qolishni chuqurlashtirib qolmasdan, balki bolalarda salbiy shaxsiy sifatlarning shakllanib borishiga sabab bo'lishi, hamda bolalardagi asab, ruhiy kasalliklarning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin.

Ruhiyatni urganishning ayrim uslublari xususida yukrrida to'xtalib o'tdik. Uning yana qator usullari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: Klipes, Piktogramma, Shulte jadvali, tugri va teskari sanash, korrektur sinash, kodlash, geometrik figuralarni tasniflash, mazmunli suratlar, hayotda uchramaydigan kulgili

ko'rinishlar, beriluvchanlikni o'rganish, De-Grefe (o'z-uziga baho berish),
Rossolimo uslubi va hokazolar.

XULOSA

Ruhiy jarayonlar miyaning alohida xossasi bo'lib, faqat miyaning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ruhiyatning bevosita moddiy substrati (asosi) odamning bosh miyasidir.

Insonning nechog'lik sog'ligi yoki sog'ligidagi muammolar tufayli atrof-muhitni o'shangan bog'liq ravishda xis qilishadi. Hissiy (aks ettirish) bilish bu sekin hissiy qabul qilish xotir va tasavvurlardan iborat ekan. Rivojlanishiga ko'ra imkoniyati cheklangan bolalar atrof – muhitni har xil yo'llar bilan his qilishadi. Ya'ni ko'zi ojiz bola eshitish va teri orqali sezish orqali qabul qilsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola ko'rish va teri orqali sezishi yordamida qabul qiladi. Aqli zaif bolaning atrof haqidagi tasavvuri esa uning miya faoliyatidagi buzilish darajasiga bog'liq holda shakllanadi. Aqli zaif bolalar sog'lom tegoshlariga nisbatan ruhiy rivojlanishida ma'lum darajada ortda qoladilar. Shu orqaliq tasavvurga balham berish yoki qisqartirishlarda aqli zaif bolalar bilan maxsus psixologik yordamni tashkil etish lozim.

Demak ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samarali tashkil etishda har bir aqli zaif bolaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda yondoshilsa va o'quvchilarni ruhiy olami bilan o'rtoqlashgan holda mutadil do'stona muhit yaratilsa, aqli zaif boladagi har qanday kamchilik "Nuqson" deb emas balki "Imkoniyat" deb qabul qilishga erishiladi.

Chunki har qanday aqli zaif bola rivojlanmagan bola emas, balki o'ziga xos rivojlanishiga ega bola xisoblanadi. Shuning uchun ham aqli zaif bolalar ruhiy jarayonini o'ziga xos ravishda rivojlangan bo'lib bu holat ularning tashqi muhit bilan muloqotdagi normal holatini o'zida aks ettirishda muammolar bo'lib ushbu muammolarga ularning hotirasini sustlashishi fikrlashining tarqoqligi diqqatning beqarorligi idrok etishning yetarli emasligi kabi bir qator ruhiy jarayonlarning buzilishi kelib chiqadi. Bu esa aqli zaif bolalarning ta'lim olishidagi muammolarni qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ya'ni ularda ta'lim jarayonida savodxonlikni o'rganishda mehnat malakalarini egallashda, o'z fikrlarini erkin bayon etishda to'sqinlik qiladi. Bu esa o'z o'rnida yordamchi maktablarda aqli zaif bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchi va tarbiyachilarda o'z ishlariga ma'suliyat bilan yondoshishni talab qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asosan olib borilgan tadqiqot ishlarimizdan quyidagi xulosaga keldik.

-Aqli zaif bolalarda ruhiy jarayonning o'ziga xos tomoni bu – xotiraning sustligi, biron – bir narsa yoki voqeya hodisalarni idrok etishni yetarli emasligi fikrlashni tarqoqligi, diqqatni beqarorligi, nutq faoliyatining yetarli rivojlanmaganlik holatlari yuzaga keladi.

-Aqli zaif bolalarni ko'pchiligida ruhiy rivojlanishga bog'liq holda, ularda jahildorlik, injiqlik, ahloqsizlik yoki aksincha pastivlik, tortinchoqlik, birovlariga qo'shilmalik kabi holatlar yuz beradi.

-Ko'pchilik aqli zaif bolalarda esa nutqning to'liq rivojlanmaganligi oqibatida o'z fikrlarini aniq, ravon bayon etaolmaslik, mustaqil fikrlay olmaslik holatlari yuzaga keladi.

-Albatta aqli zaif bolalarning ruhiy rivojlanishidagi buzilishlarini oldini olish yoki bartaraf etish uchun ta'lim – tarbiya jarayonidagi ishni to'g'ri tashkil etgan holda kerakli korreksion ta'limiy – tarbiyaviy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yib borilsa ularni ruhiy jarayonini sog'lomlashtirish mumkin. Bunday olib borilgan ishlar aqli zaif bolalarni hayotda o'zlarini ijobiy o'rinlarini topishga imkoniyat yaratib beradi.

Ushbu tadqiqotimiz ishini maxmuni va hulosalaridan kelib chiqqan holda qo'yidagi tavsiyalarni bermoqchimiz.

-Ta'lim-tarbiya jarayonida har bir aqli zaif bolani ruhiy holatini aniq va keng o'rgangan holda to'g'ri baho berish.

-Diqqat va fikrlash holatidagi buzilishlarni korreksiyalash uchun “To'rtinchi ortiqcha?”, “Nima yetishmaydi?”, “Rassomning hatosini top?” O'yla, izla top, shuningdek bir-biriga yaqin bo'lgan turli jism yoki predmetlarni umumlashtirish kabi didaktik usullardan foydalanish.

-Aqli zaif xotirasini tinglash uchun she'rlar yodlash tez aytishlar, topishmoqlar javobini topish, o'qilgan matn va mazmunli so'zlab berishga o'rgatish.

-Aqli zaif bolalarni ruhiy jarayonidagi tarbiyaviy tomondagi buzilishlarini oldini olish uchun bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, to'garaklarga jalb qilish.

-Aqli zaif bolalarni ta'limiy va tarbiyaviy ishlaria ota-onlar bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish.

**Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-
psixologiya fakul'teti, Defektologiya" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Charos Egamqulovaning "Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonining o'ziga xosligi"
nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

X U L O S A S I

Aqli zaif bolalar ruhiyatining o'ziga hosligi hozirgi zamon ilg'or fan yutuqlarining natijalari bilan bog'lab o'rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini hisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o'taydi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruhiy holatlar, qay darajada o'sishini, rivojlanishini bilib ish yuritilgan. Talaba Charos Egamqulova bitiruv malakaviy ishida o'z aksini topgan. Bitiruv malakaviy ishi aniq reja asosida tayyorlangan. Ish kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Muallif tadqiqot ishining birinchi bobida aqli zaif bolalarda ruhiy rivojlanish jarayoni buzilishlarining sabablari, aqli zaif bolalarda ruhiy jarayon buzilishining biologik va jismoniy sabablari, aqli zaif bolalar ruhiy jarayonining muammosi va xususiyatlariga qo'yiladigan talablar yoritishga harakat qilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobida aqli zaif bolalar ruhiy jarayoning o'quv faoliyatiga ta'siri va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar, aqli zaif bolalar bilish faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari, aqli zaif bolalarni ta'limga o'rgatishda ruhiy jarayonlarning ta'siri, Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonidagi muammolarni bartaraf etishning korreksion, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni kompleks tashkillashtirish masalalarini yoritib bergan. Muallif o'z ishda aqli zaif bolalarni bilish va ruhiy jarayonlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ustida kuzatish ishlarini olib borgan va xulosa qilgan.

Bitiruv malakaviy ish mustaqil tayyorlangan, xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib barcha talablarga javob beradi. Bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy raxbar:

t.f.n.G` .Arifxodjaev

**Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti
Pedagogika-psixologiya fakul'teti, Defektologiya" ta'lim yo'nalishi 4-
bosqich talabasi Charos Egamqulovning "Aqli zaif bolalar ruhiy
jarayonining o'ziga xosligi" nomli bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Aqli zaiflikning og'ir darajasi idiotlik deb yuritilib, ular umumta'limga jalb etilmaydi. Bu toifa aqli zaif bolalar ijtimoiy ta'minot muassasalarida saqlanadilar. Shu muassasalarida bunday bolalar tarbiyalanadilar, davolanadilar. Bu bolalarda nutq deyarli rivojlanmagan, o'z-o'zlariga hizmat qilish malakalari shakllanmagan bo'ladi. Bu bolalarning harakat tizimlari ham buzulganligi oqibatida ularning yugurishlari ham o'ziga hos ko'rinish kasb etgan. Talaba Charos Egamqulova bitiruv malakaviy ishida o'z aksini topgan. Bitiruv malakaviy ishi aniq reja asosida tayyorlangan. Ish kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Muallif tadqiqot ishining birinchi bobida aqli zaif bolalarda ruhiy rivojlanish jarayoni buzilishlarining sabablari, aqli zaif bolalarda ruhiy jarayon buzilishining biologik va jismoniy sabablari, aqli zaif bolalar ruhiy jarayonining muammosi va xususiyatlariga qo'yiladigan talablar yoritishga harakat qilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobida aqli zaif bolalar ruhiy jarayoning o'quv faoliyatiga ta'siri va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar, aqli zaif bolalar bilish faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari, aqli zaif bolalarni ta'limga o'rgatishda ruhiy jarayonlarning ta'siri, Aqli zaif bolalar ruhiy jarayonidagi muammolarni bartaraf etishning korreksion, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni kompleks tashkillashtirish masalalarini yoritib bergan. Muallif o'z ishda aqli zaif bolalarni bilish va ruhiy jarayonlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ustida kuzatish ishlarini olib borgan va xulosa qilgan.

Bitiruv malakaviy ish mustaqil tayyorlangan, xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib barcha talablarga javob beradi. Bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

**dots.R.Abdurasulov
Maktabgacha ta'lim nazariyasi
va uslubiyati kafedراسي**

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995 y.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998 y.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
6. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011 yil.
7. A.I.Soatov, K.X.Mametov, P.M.Po'latova “Oligofrenopedagogika asoslari” Toshkent, “O`qituvchi”1994 yil.
8. Maktab va hayot 2004 yil. № 4 son.

9. I.Mo'minova, D.Nazarova "Maxsus ta'lim atamalarining izloqli lug'ati"
Toshkent-2010 yil.
- 10.I.V.Dubrovina. A.G.Ruzskaya tarixi osida "Psixicheskaya razvitiye
vospitannikov detskogo doma" M.Prosversheniye. 1990 yil.
- 11.Abdullayeva Q. Savod o'rgatish. T.,1996
- 12.AksyonovaA.K. Metodika obucheniya russkomu vspomogatelnoy shkole.-
M.,Prosveshcheyeniye,2004
- 13.Boshlang'ich maktabning davlat ta'lim standartlari. RTM, T.,2006
- 14.Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T.1985
- 15.V.Voronkova Obucheniye gramote i pravopisaniyu v 1-4 klassah
vspomogatelnoy shkoli. Moskva, prosveshcheyeniye, 1988
- 16.Obucheniye uchashihya 1-4 klassov vo vspomagatelnoy shkole Pod
Iredaksiyey Petrovoy V.G. Moskva, Prosveshcheyeniye, 1992.
- 17.Yordamchi maktablar uchun ona tili, o'qish va nutq o'stirish dasturi.
Tuzuvchi V.Rahmanova, T.,2003
- 18.Pulatova F.M. Oligolienopedagogika.T, 2006.
19. Rahmanova V,S.MaHSus pedagogika.T.2005
- 20.Rahmanova V.S.Ona tili o'qitish mahsus uslubiyati. T.,2003
- 21.G'ulomova H., Yo'ldosheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish
metodikasi. ma'ruza matni T.,2003.
- 22.G'ulomova H.,Gofforova I., Savod o'rgatish. T.,1996
- 23.WWW.pedagog.uz
- 24.WWW.TDPU.uz
- 25.ZiyoNET.www.@mail.ru